

**XORAZM**  
viloyatiga 515 ming nafar xorijiy, 1,8 mln. nafar mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Turizm eksporti tushumi 170 mln. AQSH dollarini tashkil etgan. Umumiy qiymati 218,5 mlrd. so'mlik 81 ta turizm loyihalari amalga oshirilgan.

2-sahifa

**Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimini**  
Xizmat vazifasini bajarayotgan paytda tasvirga olib, ushbu axborotni uni obro'sizlantirish maqsadida Internet tarmog'iga joylashtirgani uchun 50 baravargacha jarima belgilanmoqda.

**Alisher QODIROV,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari

2-sahifa

**«Avtoservis»ga «Chilonzor Oqtepa»dan boshqa joy topilmadimi?**

Undan ko'ra, tarixiy obida atrofi obodonlashtirilsa, keksalar, bolalar uchun yashil maydonlar, yo'laklar qurilsa, shundoq ham poytaxtimizda anqoning urug'iga aylanib borayotgan madaniy hordiq chiqaradigan, ziyorat qiladigan maskanga aylantirilsa, maqsadga muvofiq emasmi?

4-sahifa

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIIY-SIYOSIY GAZETASI

# milliy tiklanish

MILLIY QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT


№ 41  
(1229) 2023-yil  
29-noyabr, chorshanba  
Adasi - 7 186



Joriy yilning 10 oyida qo'pol qoidabuzarliklarning 1059 tasi belgilangan tezlikka rioya etmaslik, 575 tasi piyodaga yo'l bermaslik, 452 tasi haydovchining tajribasizligi, 1101 tasi avtomobilni mast holatda boshqarishi bilan bog'liq.

## Qonun tezlik bilan yo'lga chiqarildi. Keyingi bekat Senat!

2023-yilning 1-noyabr holatiga O'zbekistonda 4 mln. 541 mingta mashina ro'yxatga olingan. 2019-yilda bu raqam 3 mln. 800 mingtani tashkil etgan. Uch yil oldin mashinalar soni yiliga 250-300 mingtadan ko'paygan bo'lsa, shu yilning 11 oyida bu raqam 400 mingtaga yetdi...



Davomi 2-sahifada

**I** «Daraxt ham ildizga salom beradi» – qayerdadir o'qiganim bu hikmatli so'zda teran ma'no bor. Va, daraxt yaproqlari bir kun bandidan ajralib, ildizlar ustiga poyonoz bo'ladi.

**Ildizga nazari**

**Ehtimol, men bu maktubni ikki-uch oy oldin, yura olmay to'shakka mixlanib qolgan kunlarimda,**

siz meni yelkangizda opichlab ko'tarib yurgan lahzalarda yozgandirman.




5-sahifa



## ORSIZLIK - 2

YOXUD «MILLIY TIKLANISH» PARTIYASIDAN YANA NIMA KUTISH MUMKIN DEGAN DO'STLARIMIZGA!

6s



So'z  
**NODIRAI DAVRON – ZAMONAI YAGONALARGA!**

3s

(Boshlanishi 1-betda)



**Transport bilan bog'liq noxush holatlar ham shunga yarasha ortib boryapti. Masalan, joriy yilning 10 oyida qo'pol qoidabuzarliklarning 1059 tasi belgilangan tezlikka rioya etmaslik, 575 tasi piyodaga yo'l bermaslik, 452 tasi haydovchining tajribasizligi, 1101 tasi esa avtomobilni mast holatda boshqarish bilan bog'liq. Bunday hodisalarga asosan qonunchilikda belgilangan javobgarliklarni mensimaslik, ikkinchidan, yo'l harakati qoidalarini bilmaslik sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda ayrim qoidabuzarliklar uchun qonun hujjatlarida ta'sir choralari belgilanmaganini ham aytish joiz. Bu kabi salbiy oqibatlarining oldini olish va yo'l harakati qoidalarini tartibga solish maqsadida yangi qonun loyihasi ishlab chiqildi.**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining kecha bo'lib o'tgan majlisida ayni shu – “Yo'l harakati xavfsizligi tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi qonun loyihasi muhokama qilindi. Majlisda ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda yo'l harakati qoidalarini yanada takomillashtirish, yo'l-transport hodisalarining oldini olish hamda yo'l harakati xavfsizligini nazorat qilish borasida tizimli ishlar olib borildi. Xususan, yo'l harakati xavfsizligi tizimini takomillashtirish, haydovchilar va piyodalarning yo'l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini oshirish, haydovchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini yaxshilash hamda sohani to'liq raqamlashtirishga doir huquqiy asoslar yaratildi. Biroq ana shunday choralarga qaramay, haydovchilarning yo'l harakati qoidalariga amal qilmasliklari natijasida yo'l-transport hodisalari soni ortib bormoqda. Ayniqsa, transportni mast holatda boshqargan haydovchilar og'ir oqibatli hodisalarni sodir etishyapti. Ayrim haydovchilar tomonidan yo'l qoidalariga bepisand qarash, transport boshqarish madaniyatiga rioya qilmaslik, yo'l harakatining boshqa qatnashchilariga nisbatan hurmatsizlik va transport vositasini “agressiv” holatlarda boshqarish ko'paymoqda.

Shuning uchun ham yangi qonun loyihasi bilan qo'pol qoidabuzarliklar sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo muqarrarligini ta'minlash, transportni boshqarish huquqidan mahrum qilingan shaxs tomonidan o'zboshimchalik bilan transportni takroran boshqarganlik uchun jinoyi javobgarlik belgilash nazarda tutilyapti. Jumladan, Jinoyat kodeksi bir nechta moddalar bilan to'ldirilyapti. Ya'ni, avtomototransport vositalarining identifikatsiya raqamlarini qalbakilashtirish, haydovchilarni tayyorlash, imtihondan o'tkazish va guvohnoma berish tartibini buzganlik uchun 5 yilgacha, transport vositasini takroran mast holda boshqarish, boshqarish huquqidan mahrum qilingan shaxsning yana qayta rulga o'tirgani uchun 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilanmoqda. Shuningdek, siqilgan va suyuqlashtirilgan gaz hamda dizel, gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlaydigan transportlarda xavfsizlik qoidalarini buzganlik uchun hayoti va sog'lig'iga zarur yetganda 8 yilgacha ozodlikdan mahrum etish jazosi tayinlanishi mumkin. Shunday qoidabuzarlik tufayli fuqaroning hayoti va sog'lig'iga zarar yetmasa, aybdorga BHMning 10 barobargacha jarima solinishiga sabab bo'ladi. Ushbu qonun loyihasi bilan doimiy ravishda qoidabuzarlik sodir etganlik uchun jarima ballari hisoblash tizimi ham joriy etilmoqda. Ya'ni, ushbu

norma bilan hisoblangan jarima ballari yil davomida 12 balldan oshgan hollarda oxirgi sodir etilgan huquqbuzarlik uchun qo'shimcha jazo tariqasida haydovchini transport vositasini boshqarish huquqidan mahrum qilish tartibini joriy etish taklif qilinayapti. Albatta, bu tartib sud tomonidan belgilanadi. Yo'l harakati qoidabuzarliklari bo'yicha hisoblanadigan jarima ballari belgilangan miqdordan oshganlik uchun ma'muriy jazoni jinoyat ishlari bo'yicha sudlar qo'llashadi. Qonun loyihasidagi “Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining o'z xizmat vazifalarini bajarishlari bilan bog'liq ma'lumotlarni ularni obro'sizlantirish yoki haqorat qilish maqsadida Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish” bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida jarimaga tortilishiga sabab bo'lishi haqidagi yangi modda, deputatlarning qizg'in muhokamalariga sabab bo'ldi. “Milliy tiklanish” fraksiyasi a'zosi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasi raisi Jahongir Shirinov ushbu normaga munosabat bildirar ekan, ayrim deputatlar bu O'zbekistonning ochiqlik siyosatiga zid ekanini ta'kidlaganini aytdi. Qo'mita loyihada “obro'sizlantirish maqsadi” degan tushuncha to'la ochib berilmagani, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tasvirini shunchaki Internetga joylashtirish qonundan taqiqlanmaganidan kelib

chiqib, yangi taklif qilinayotgan moddada belgilangan normalar aniq-tiniq bo'lishi, bahslarni keltirib chiqarmasligi lozim degan qarorga keldi. Shuningdek, ushbu moddaga “haqorat qilish” degan tushuncha ham kiritilmoqda. Vaholanki, Ma'muriy javobgarlik kodeksining 40-moddasida haqorat qilganlik uchun javobgarlik belgilangan. Shundan kelib chiqib, qo'mita yangi moddadan “haqorat” so'zini chiqarib tashlab, “Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini, ular o'z xizmat burchlarini, ya'ni jamoat xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xizmat vazifalarini bajarish chog'ida olingan foto va video tasvirlarni ularni obro'sizlantirish maqsadida, ya'ni yolg'on, noaniq yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlarni Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirish”, degan mazmunda o'zgartirish zarurligini ta'kidladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov ham ushbu taklifni qo'llab-quvvatlab, har qanday odam tasvirga olishi mumkinligini, ya'ni haydovchi bo'ladimi yoki uchinchi shaxs bo'ladimi, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan oddiy fuqaro o'rtasidagi munosabatlarni tasvirga olishi mumkinligini aytdi. Majlisda ushbu qonun loyihasi yuzasidan “Milliy tiklanish” fraksiyasi yetakchisi Alisher Qodirov ham munosabat bildirib, o'zini hurmat qilgan, qadrini bilgan odam qonunni hurmat qilishini, oilasi, farzandlari va jamiyatni o'ylamagan odam esa yo'l qoidalariga amal qilmaydi va falokatga yuz tutadi, deya

ta'kidladi. Partiya fikricha, tartib bo'lmagan joyda taraqqiyot ham bo'lmaydi, Alisher Qodirov keyinroq o'z fikrlarini kengroq ifoda etib alohida post ham qoldirdi. Uning yozishicha, uzoq vaqtdan buyon tortishuvlarga sabab bo'layotgan qonun loyihasi nihoyat Senatga yuborildi. Vazirlar Mahkamasiga 14 turdagi yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun 0,5 dan 2 gacha jarima ballari hisoblash va yil davomida 12 jarima bali olgan haydovchini boshqarish huquqidan mahrum qilish tartibini ishlab chiqish topshirilgandi. Loyihada qoidani buzmagani haydovchilarni rag'batlantirish va jazo muddati tugagach, qayta imtihon topshirib, guvohnoma olishlari mumkinligi ham belgilab qo'yildi. Tabiiy va suyuqlashtirilgan gazda ishlaydigan transport vositalarida xavfsizlik qoidalarini buzganlik uchun 5 baravardan 10 baravargacha, Yo'l bezoriligiga esa 25 baravargacha jarima belgilanyapti. – Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimini xizmat vazifasini bajarayotgan paytda tasvirga olib, ushbu axborotni uni obro'sizlantirish maqsadida internet tarmog'iga joylashtirgani uchun esa 50 baravargacha jarima belgilanmoqda, – deb yozadi A.Qodirov. Ha, chindan ham uzoq kutilgan qonunni nihoyat quyi palata ko'rib chiqdi. Endi navbat Senatga...

**Ravshan MAHMUDOV,**  
**«Milliy tiklanish» muxbiri**

✓XORAZM VILOYATI HOKIMLIGI DIQQATIGA!

# Turizm bo'yicha qanday muammolar bor?

- ◆ Urganch temiryo'l vokzalida nogironlik aravachalari yetishmayapti,
- ◆ Kulollik markazi esa tabiiy gazdan uzib qo'yilgan.

Xorazmda turizmni rivojlantirish, madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish bo'yicha qabul qilingan qonunlar, farmon va qarorlar ijrosini o'rganish bo'yicha tuzilgan ishchi guruhining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi viloyat Kengashi tashabbusi bilan tuzilgan ishchi guruh partiya xodimlari, deputatlar hamda boshqa idora vakillaridan iborat bo'lib, yig'ilishda joriy yilning to'qqiz oyidagi ishlar atroficha tahlil qilindi.

Hisobotda qayd etilishicha, viloyatda turizmni rivojlantirish orqali sayyohlar oqimini ko'paytirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqilgan bo'lib, unda joriy yilda turistlar sonini 2,2 mln.ga (561 ming xorijiy, 1,6 mln. mahalliy) yetkazish reja qilingan. Hisobot davrida viloyatga 515 ming nafar xorijiy, 1,8 mln. nafar mahalliy sayyohlar tashrif buyurgan. Turizm eksporti tushumi 170 mln. AQSH dollarini tashkil qilgan. Ana shu davrda umumiy qiymati 218,5 mlrd. so'mlik 81 ta turizm loyihasi amalga oshirilgan.

Eng asosiysi, 14 ta sayyohlik tashkiloti,

84 nafar gid-tarjimon, 20 ta turistlik yo'l ko'rsatkich hamda 14 ta sanitariya-gigiyena shaxobchasi tashkil etilgan. Bundan tashqari, to'rtta yangi sayyohlik yo'nalishi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Sayyohlar vaqtini mazmunli tashkil etish va ularning Xorazmdagi kunlarini yanada uzaytirish maqsadida viloyatda 6 ta yirik va xalqaro anjumanlar, bir qator madaniy va ko'ngilochar tadbirlar tashkil etilib, ularda 600 ming nafardan ortiq xorijiy va mahalliy sayyohlar ishtiroki ta'minlangan. Shuningdek, turistik salohiyatni xorijda targ'ib qilish maqsadida viloyat delegatsiyasi Ozarbayjon, Turkiya, BAA, Fransiya, Rossiya, Turkmaniston hamda Singapurda bo'lib o'tgan xalqaro turizm yarmakalarida ishtirok etdilar. Pirovardida esa 800 dan ortiq o'zaro hamkorlik shartnomalari imzolangan.

Yig'ilishda sayyohlarning viloyatda mehmon bo'lib qolishlari muddatini 4 kun (amalda ikki-uch kun)ga uzaytirish bo'yicha tavsiyalar berildi. Bunda har bir sayyohdan tushum 330 dan 400 AQSH dollariga oshadi.

Madaniy meros obyektlari, jumladan,

Markaziy Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlik hisoblangan «Ichang-qal'a» davlat muzey-qo'riqxonasida ham o'rganishlar olib borildi. Shundan keyin tarixiy obyektaga keluvchi sayyohlar sonini yanada ko'paytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berildi.

Jumladan, muzeyda Islom rivojiga katta hissa qo'shgan shaxslar va ulamolar haqida ekspozitsiya, wi fi zonalari, tahoratxonalar, audio-gidlar tashkil etilishi lozimligi aytiladi. Muzey qo'riqxonasi ishchi xodimlariga esa yagona milliy forma joriy etilishi, «Juma masjid»ga sovutkichlar o'rnatilishi, muzey hududidagi masjid, qabriston va muqaddas qadamjolar ziyorat turizm hududiga aylantirilishi zarurligi uqudirildi. «Yangi uslub maktabi», «Ollaqulixon madrasasi», «Karvonsaroy», «Muhammad Raximxon» madrasasi, «Toshhovli saroy»larida joriy ta'mirlash ishlarini olib borishdan tortib, kitoblar ko'rgazmasi tashkil etishiga bo'lgan masalalar ham muhokama qilindi.

Urganch temir yo'l vokzali, Urganch xalqaro aeroporti va Yusuf Hamadoniy

maqbarasi, Hunarmandlar uyushmasiga qarashli Kulollar markazi faoliyati ham o'rganilib, turizmni rivojlantirishga halal berayotgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Ma'lumki, Urganch temir yo'l vokzalida 2012-yildan boshlab 10 ta yo'nalish bo'yicha poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan va 60 ta qo'shimcha ish o'rni yaratilgan. Hozirda vokzal hududida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari qurilmoqda. Lekin vokzalda nogironlik aravachalari yetishmaydi.

Kulollar markazida hozirda 50 dan ortiq yigit-qizlar hunar o'rganmoqda. Markaz tabiiy gazdan uzilgan va bu masalani hal qilish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilishi lozim.

Yig'ilish yakunida aniqlangan muammolarni hal qilish bo'yicha deputatlar ko'magi bilan tegishli idoralarga so'rov chiqarishga kelishib oldilar.

**Anvar IBRAGIMOV,**  
**partiyaning Xorazm viloyat Kengashi raisi o'rinbosari**



# SO'Z NODIRAI DAVRON – ZAMONAI YAGONALARGA!

Avval xabar qilinganidek, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi tomonidan 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan siyosatga qiziquvchi, yetakchilik qobiliyatiga ega, jamiyatda ijtimoiy faol, milliy qadriyatlarini qadrlaydigan xotin-qizlar o'rtasida «Nodirai davronlar» Respublika ko'rik-tanlovi e'lon qilindi.

O'tgan hafta yakunida partiyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlarida tanlovning saralash va birinchi bosqichlari bo'lib o'tdi. Unda Oila va xotin-qizlar qo'mitasining «Qizlarjon» hamda Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi «Qizlar ovozi» klublari a'zolari orasidan saralab olingan qizlar o'zaro bellashdilar. G'oliblar ikki shart bo'yicha: bexato yozish va ikkinchi – «Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot» mavzusida xalqimizning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni asrash, targ'ib qilish va yanada boyitishga qaratilgan loyihalari taqdimoti bo'yicha aniqlandi.

Globalashuv jarayoni, tezkor zamonamiz yoshlar, xususan, qizlarimiz ta'lim-tarbiyasiga yanada e'tiborliroq bo'lishni talab qilyapti. Xo'sh, bugunning ayoli qanday bo'lishi kerak? Ayol nafaqat farzand, balki millat tarbiyachisi hamdir. Shunday ekan, u har jihatdan barkamol bo'lishi lozim. Ular ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishlari barobarida, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini qadrlaydigan, ilmi, ma'rifatli, jamiyatda ham, oilada ham o'z munosib o'rniga ega bo'lishlari uchun kimlardan o'rnak olishlari muhim?

Millatimiz oydinlari – To'maris, Bibixonim, Jahon otin Uvaysiy, Nodirabegim, Zulfiyaxonim singari Sharqning fozila ayollari hayoti nafaqat o'z davri, balki bugungi yoshlarimiz uchun ham har jihatdan ibratdir. Ana shu jihatlarni e'tiborga olgan holda mazkur tanlovni «Nodirai davronlar» deb nomlashga qaror qildik.

O'rinni savol tug'iladi: «Nega aynan «Nodirai davronlar tanlovi». Ma'lumki, XIX asrning birinchi yarmida yashab, «Mohlaroyim», «Komila», «Maknuna» taxallusi bilan irod qilgan shoira Nodirabegim madrasalar qurdirib, ilm ahliga rahnamolik qilgan, ilmu ma'rifat, adabiyot, madaniyat va san'at rivojiga ulkan hissa qo'shgan yirik davlat arbobi sifatida ham faoliyat yuritgan. Shoiraning ijodi va faoliyatiga qiziqish boshqa shoiralardan farqli o'laroq, uning hayotlik davridayoq boshlangan. Zamondoshlari u haqida voqeband dostonlar bitishgan, unga

maxsus g'azallar bag'ishlashgan, she'rlariga naziralar yozishgan, muxammaslar bog'lashgan. Unga «ilm adabi va nazm osmonining yulduzi, ushshoqlari g'azalxon, shakar sochuvchi bulbul», deya ta'rif berishgan. Oqila, fahmli, ilm va so'zning qadriga yetadigan donishmand ayol, deya e'tirof etishgan.

Nodirabegimning ana shu go'zal fazilatlarini zamonamiz qizlariga ham ibrat qilish niyatida, qolaversa, partiyamiz g'oyasi, maqsad va vazifalariga uyg'un ravishda ko'rik-tanlovni «Nodirai davronlar» deb nomladik.

Yaqinda partiya Markaziy kengashida «Nodirai davronlar» Respublika ko'rik-tanlovi loyihasining taqdimoti ham bo'lib o'tdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'rik-tanlov ilk bor O'zbekiston Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Oila va xotin-qizlar qo'mitasi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida o'tkazilmoqda.

Mazkur tanlovni o'tkazishdan asosiy maqsad xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, siyosiy yetakchilik qobiliyatini yuzaga chiqarish orqali ularni siyosiy jarayonlarga tayyorlash, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda faol ishtirokini ta'minlash, qonun ijodkorligi faoliyatiga keng jalb etish, partiya g'oyasi, dasturiy maqsad va vazifalarini qo'llab-quvvatlovchi hamda targ'ib etuvchi

siyosiy yetakchilarning yangi avlodini tarbiyalash, eng asosiysi, Yoshlar parlamenti, vakillik organlariga nomzodlar zaxirasini shakllantirishdan iboratdir.

Partiya Markaziy kengashi raisi o'rinbosari Feruza Muhammedjanovanning fikricha, «Nodirai davron» ta'rif «Zamonai yagona», ya'ni zamonasining yagonasi, degan ma'noni anglatadi. Ko'rik-tanlovning shunday nomlanishida unda ishtirok etgan qizlarimizning har biri zamonamizning yagonasi bo'lsin, degan ezgu maqsad mujassam. Biz davlat qurgan xalqimiz. Ayollarimiz ham bu jarayonda faol ishtirok etganlar. Agar kimda kim Sharq ayoli faqat ezilib yashagan desa, qattiq yanglishadi. Zero, e'tiqodimizda ham jannat onalarning oyog'i ostida, deyilgan. Biz qanchalik zamonaviylashmaylik, asl qiyofamizni unutmasligimiz, yaratilgan buyuk ma'naviy va moddiy merosga egalik qilishimiz darkor. Qarang, Nodira o'sha davrda beshta tilni bilgan, poliglott bo'lgan. O'z yoridan ayrilganda ham hayotini hasratu firoqda o'tkazmay, fitnalarga qarshi ezigulik bilan kurashgan. Farzandlarini tarbiyasiga katta e'tibor berib, o'zbek ayolining timsoliga aylangan. Bugun qizlarimiz chin qahramon onalarimizni yaqinlashtirishimiz kerak. Qolaversa, tanlovdan ko'zlangan uchta maqsad bor:

Birinchidan, bugun xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashda qizlar ovozig

alohida e'tibor qaratish. Buni jamiyatimizdagi shu nomdagi tuzilmalar – «Qizlar ovozi» va «Qizlarjon» klublari misolida ham ko'rish mumkin. Ayollarimizning muammolari kamayishi uchun esa qizlarimizni o'zlarini qadrlashga o'rgatish kerak!

Ikkinchidan, qonimizda bor siyosiy faollik o'zbek qizlari hayotining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Axir siyosatdagi xotin-qizlar uchun kvotalar bekorga oshirilayotgani yo'q. Qizlarimiz 21 yoshdan mahalliy Kengashlar deputatligiga o'z nomzodlarini qo'yishlari mumkin. Buning uchun esa bugundan harakat boshlashimiz kerak. Tanlov asli saylovga va raqobatga tayyorgarlik, deganidir.

Uchinchidan, qadriyatlarga tayangan taraqqiyot, deymiz. Biroq qadriyat nima o'zi, degan savolga javobimiz haminqadar. 300 ga yaqin qadriyatning qanchasini sanab bera olamiz? Bu yilgi tanlovda qizlarimiz yo'qolib borayotgan qadriyatlar haqida nafaqat so'z yuritishadi, balki ularni asrash masalasida o'z amaliy takliflarini ham berishadi.

Ushbu shart orqali biz qizlarning qadriyatlar haqidagi mulohazalarini o'rganamiz va yo'qolib borayotgan, ayni paytda, tiklanishga muhtoj milliy qadriyatlarni barqaror saqlash bo'yicha o'z takliflarimizni ishlab chiqib, bo'lajak saylovlardagi partiya Saylovoldi dasturiga kiritishni maqsad qilganmiz...

Feruza JALILOVA,  
partiya Markaziy kengashi  
bo'lim boshlig'i

” Qadriyatlarga tayangan taraqqiyot, deymiz. Biroq qadriyat nima o'zi, degan savolga javobimiz haminqadar. 300 GA YAQIN QADRIYATNING QANCHASINI SANAB BERA OLAMIZ?

Ma'lumki, partiyamizning 2009-yildan buyon o'tkazilayotgan «XXI asr ayoli» tanlovi asosan partiya a'zolari hamda xayrixohlari o'rtasida tashkil qilingan edi. Bugun esa zamon o'zgaryapti, avlodlar yangilanyapti.

✓ Taqdimot



## Bu kitobni varaqlaganingiz sari...

Kitob taqdimoti to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatildi, unda adabiyot va san'at, maorif hamda jurnalistikada nom qozongan, o'ziga xos maktab yaratganlar so'zga chiqib «Ishonch» jamoasi va bosh muharrir tashabbusi bilan chop etilgan «Yil ishonchi» kitobiga baho berdilar. An'anaviy matbuot, ayniqsa, bosma nashrlar birmuncha og'ir sharoitlarga ko'nika boshlagan bir paytda «Ishonch» va «Ишонч-Доверие» gazetalarini tahririyati tomonidan 1,5 ming nusxada shunday katta kitobning chop etilishini chindan ham katta voqea deb atash mumkin.

Faylasuflardan biri dunyoni kezmochi bo'lgan odam eng avvalo, o'rnidan turishi lozim degan ekan.

Afsuski, hamkasblarimiz orasida bersang yeyman, bermasang... qabilida ish olib borayotganlar ham yo'q emas. Ammo «Ishonch» bu masalada ishonchli muassisi bilan ishonchli odimlar tashlayapti.

Qoyil. Aytishlaricha, bu qayd etilganidek, oltinchi emas, balki sakkizinchi nashrdir...

Odatda taqdimotlarni hisobot deya qabul qilamiz. Ammo bu hisobot 2022 – 2023-yillar davomida «Ishonch»da chop etilgan eng dolzarb mavzulardagi maqolalardan iborat bo'lgani uchun unga befarq qaraganlar bo'lmadi. Kitobni varaqlaganingiz sari

so'z qadriini anglay boshlaysiz. Har bir mavzuda yangicha bir qarash, yangi bir taklifni ko'rasiz.

– To'plamni o'qib shunday xulosaga kelish mumkinki, bugun agar har bir inson o'zini o'zgartirmasa, fidokor shaxs sifatida shakllantirmasa, muammolar haqida har qancha gapirilsa ham, ularni bartaraf etish qiyin kechar ekan, – deydi O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurov. – Istaymizmi, yo'qmi, amerikalik yozuvchi va publitsist Teodor Drayzer asarlaridagi ko'plab voqealar bugun bizning hayotimizda, odamlarning ish faoliyatida, ruhoniyatida, odamlarning o'zaro munosabatlarida aks etayotir. Yaxshi niyatlar bilan boshlagan ezgu tashabbuslarning natijalari joylarda qanday o'z ifodasini topmoqda? «Ishonch»

va «Ишонч-Доверие» gazetalarining jurnalistlari o'z maqolalarida shularni teran tahlil etayotgani e'tiborga molikdir.

Bir so'z bilan aytganda, «Yil «Ishonchi» kitobi O'zbekistondagi barcha ijodkorlar, olimlar, ziyolilar, siyosatchilar, jurnalistlarning jamiyatimizda kechayotgan jarayonlarga, yangilanishlarga munosabati, jurnalistika sohasida tahsil olayotgan talabalar darsga olib kiradigan, jurnalistika fakultetining kutubxonalarda turishi kerak bo'lgan kitob bo'lgan, desak mubolag' bo'lmaydi.

Oq yo'l «Ishonch» jamoasi.  
Oq yo'l janob bosh muharriri!

M.KARIMOVA

Kuting!



# «AVTOSERVIS»

## UCHUN «CHILONZOR OQTEPA»GA TUTASH YERDAN BOSHQA JOY TOPILMADIMI?

Toshkent shahridagi «Chilonzor Oqtepa» arxeologik yodgorligi yaqinida boshlangan qurilish haqidagi xabar ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari noroziligiga sabab bo'lgani bejiz emas.

Xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashidagi deputatlarimizning aniqlashlaricha, ayni paytda chindan ham ushbu yodgorlikka tutash yerda zamonaviy «avtoservis» qurilmoqda.

Ta'kidlash joizki, «Chilonzor Oqtepa» yodgorligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-maydagi «Muzeylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori bilan 2023 – 2026-yillarda muzeylashtiriladigan arxeologiya yodgorliklarining manzilli rejasiga kiritilgan obyektlardan biri sanaladi.

Qarorga ko'ra, bir nechta arxeologiya obyektlari, jumladan, «Chilonzor Oqtepa»da ham mintaqaviy restavratsiya markazlari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilishi belgilangan. Shundan kelib chiqib, Madaniy meros agentligi Toshkent shahar hokimligi bilan mutaxassislarni jalb etgan holda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi, konservatsiyalash va u yerda ochiq osmon ostida muzey tashkil etish hamda uni turizm obyektiga aylantirishlari lozimligi aniq-tiniq belgilab qo'yilgan. Bu maqsad

uchun esa 500 mln. so'm miqdorda mablag' ham ajratilgan.

Endi haqli savol tug'iladi: nahotki, Toshkent shahar hokimligining sohaga mas'ul mutasaddilari Davlatimiz rahbarining ushbu qarori mohiyatidan bexabar bo'lsalar? Nahotki, ana shunday e'tiborsizlik sabab poytaxtimizning 2200 yillik tarixi bilan bog'liq ushbu obida ham qadrsizlantirilsa? Bilamizki, biron-bir hududda «avtoservis» quriladi degani bu o'sha hudud og'ir texnikalarning shovqin-suronlari ta'siriga tushadi, endi bu yer yuzlab mashinalar va ehtiyot qismlar omborlari bunyod etiladigan hududga aylanadi degani-ku!

Nahot «avtoservisga» «Chilonzor Oqtepa»dan boshqa joy topilmagan bo'lsa? Undan ko'ra, tarixiy obida atrofi obodonlashtirilsa, keksalar, bolalar uchun yashil maydonlar, yo'laklar qurilib, ziyorat qiladigan maskanga aylantirilsa maqsadga muvofiq emasmi? Zero, Prezidentimiz qarori ham shu maqsadda qabul qilinmaganmidi?

Biz ayrim shaxslar, idoralarning tor manfaati va qarashlari natijasida qanchadan-qancha ochiq maydonlar o'z o'rnini ko'p qavatli uylarga bo'shatib, ekologik muvozanatni buzayotganiga guvoh bo'lyapmiz, natijada yo'llarimiz, ko'chalarimiz yanada torayib, shahar diqqinapas hududga aylanib boryapti.

Qurilish yaxshi, odamlarga uy qurib berish undan ham yaxshi ish. Ammo maktablar, mahallalar qaddini bukib, na yo'lagi va na yashil maydoni, hech bo'lmasa avtoturargohi bo'lmagan bunday uylar qurilaversa, ertaga poytaxtimizning holi nima kechadi? Bu ketishda aholi ekologiya bilan bog'liq surunkali kasalliklarga giriftor bo'lmasligiga kim kafolat beradi. Yana bir gap, nega bu borada qaror qabul qilinayotganda «Chilonzor Oqtepa» atrofidagi aholi talabi inobatga olinmadi?

Bir so'z bilan aytganda savollar keragidan ham ortiq. Shundan kelib chiqib «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi madaniy meros obyektlari yaqinida bunday qurilishlar olib borilishi tarixni oyoq osti qilish bilan barobar hisoblaydi. Bunda munosabat aholi, ayniqsa, yoshlarning tarixga bo'lgan qarashlarini o'zgartirib qo'yishi mumkinligini ham o'ylab ko'raylik.

Fikrimizcha, Toshkent shahar hokimligi ushbu qurilishni to'xtatishi, Madaniy meros agentligi esa mazkur qurilish yuzasidan chuqur o'rganishlar olib borib, natijasini aholi hamda mutasaddilarga yetkazishi lozim.

**Nodira TUYKULOVA,**  
xalq deputatlari Shayxontohur tuman Kengashi deputati



Nega bu borada qaror qabul qilinayotganda «Chilonzor Oqtepa» atrofidagi aholi talabi inobatga olinmadi



✓ Mutolaadan so'ng...

# Ildizga nazar



**Daraxt ham ildizga salom beradi» – qayerdadir o'qiganim bu hikmatli so'zda teran ma'no bor. Va, daraxt yaproqlari bir kun bandidan ajralib, ildizlar ustiga poyondoz bo'ladi. Ya'ni o'zidan ajralib, yana o'ziga qaytadi go'yo. Tabiat mavjudotlari hazrati Insonga har jabhada saboq berayotganga o'xshaydi. Zero, ildizga salom berish oxiri ildizga qaytishdan oldingi amaldir. Shunda misoli borlik va yo'qlik, omonatlik va abadiylikning surati bir lavhada mujassam bo'lgandek.**

Shoir, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist G'ulom Mirzoning «Ey, darvesh. (Zulmni yenggan mazlumlar qissasi)» kitobi ana shunday amalning hayotdagi tasdig'idir.

Unda muallif «uzoqqa borib o'tirmay» mavzuni o'tirgan joyidan topgan, ya'ni o'tgan asrning 50-yillarida qatag'onga uchragan (qatag'onning urushdan keyingi ikkinchi to'liqini) bobosi va otasi haqida yozadi. «Dastlab ota, keyin o'g'il qamoqqa tashlanadi, biri 10 yil, ikkinchisi 6 yil olis o'lkalarda tutqunlikda saqlanadi. Ota-bola jazoni GULAG – axloq tuzatish mehnat koloniyalari bosh boshqarmasining Rossiya hudud (lar)idagi mehnat-tuzatish lagerlarida o'tab qaytganlar. Afsuski, ota ham, o'g'il ham aynan qaysi manzilda jazo o'taganini hech qachon hech kimga ayni ochiqslamagan» (qarang, zulmni fosh qilmaslik uchun og'izga shu darajada «qulf solingan»), deb yoziladi kitobning «Yetmish yilda ro'yobga chiqqan adolat» sarlavhali so'zboshisida.

Bir oilaning taqdiri shunday kechgan: urushdan keyin yana «xalq dushmanlari»ni ovlash boshlangan va Qarshi tumanidagi ko'z ilg'amasa Xushvaqt qishlog'ida ro'zg'or tirikchiligi bilan kuymalanib yurgan 44 yoshli dehqon Mirza To'layev birdaniga tuzum uchun xavfli sanaladi va tergovga tortiladi. Qarashsa, bu xavfning ildizi teran, «yov» bolalab ketgan, ko'p o'tmay xavfli shaxsning 20 yoshli o'g'li Abdurahim Mirzayev ham qamoqqa olinadi. Xullas, ota-bola o'zlari ham bilmagan gunohlari uchun uzoq muddat ozodlikdan mahrum etiladilar va belgilangan jazoni o'tab, qishloqlariga omon-esson qaytadilar, har biri 80 yoshni yashab, keyin bu dunyoni tark etadilar. Kitobning asosiy mazmuni shu.

Albatta, voqeaning ikki qirradi mavjud. Birinchidan, ular kim edi va nega qamaldi? Ikkinchidan, adolat qay yo'sinda qaror topdi? Tajribali qalamkash sifatida G'ulom Mirzo ana shu yo'nalishda izchil fikr yuritadi va milliy hayotimizga xos lavhalarini quyuq bo'yloqlarda chizib, kechagi kunning manzaralarini juda yorqin aks ettiradi. Qishloqda boshqalardan farq qilmaydigan xonadon, tirikchilik bir navi: mol-hol, tomorqada kishikorlik, asosan, bodring yetishtiriladi. Bu hovlining egalari ma'rifatga yaqin odamlar, uyida kitob saqlaydi, ma'rifatdan gapiradi, Buxoro madrasalarini xatm qilganlar bor. Ana shu jihat doim «qizil» tuzumning nishonida bo'lib kelgan.

Kitob bilan tanishib chiqqan har bir kishida o'z ildiziga nazar solish, o'tgan ajdodlarini eslash, ularni yod etish shukronasi bilan birga, ham faxrlanish, ham pushaymonlik hislari uyg'onadi. Chunki millatimizning yaxlit tarixi har bir shaxs, oila, sulola tarixining

umumlashgan manzarasidir, unda asrlar dovonlaridan omon o'tib, xalqimizni asrab-qutqarib kelgan qadriyatlar mujassamlashgan, boshqa tomondan esa ota-bobolarimiz qanday qora kunlarni boshdan kechirgan? Birovga og'iri tushmay yurgan odamlarning boshiga qora kunlarning kelishi... Bu nima edi: jazomi, ko'rgilikmi yoki saboqmi? Ana shunday muhokamalar silsilasida bugun bizga muyassar bo'lgan mustaqillikning mohiyati yana bir marta namoyon bo'ladi. Bizga taqdir qanday buyuk saodatni nasib etdi?

Shubhasiz, ijodkorning qo'liga qalam tutishiga turkib bergan omillar bo'ladi. G'ulomjon uchun bu, avvalo, istiqol shukronasi bo'lsa, ikkinchidan hayot ummonida qaynab, boshidan issiq-sovuq kunlarni o'tkazayotgan, gohida o'sha kunlar sharpasini his etgan har qanday kishining bot-bot ortiga boqib, «Men, o'zi kimman, kimlarning zurriyodiman?» tarzidagi keskin mulohazalari mahsulidir. Inson shu tarzda savol qo'yishi, bu savollarga javob izlashi asnosida unga nasib etgan hayot nash'u namolariga qanchalik haqli ekani-yu, qanchalar mas'uliyat zimmasida borligini his etadi, ana shu xayoliy sayohatlari jarayonida ajdodlaridan o'ziga kuch oladi, ular ruhi-xotirasi qarshisidagi majburiyatni uni olg'a undaydi.

Kitobda bir oilaning shajarasidan tortib, har bir yaqinlarining turmush tarzi, ichki kechinmalarigacha mehr bilan hikoya qilingan. Ularning hayotiy suratlari so'z bilan jonli chizilgan. Buning uchun kishi o'sha kunlarni to'la his etishi, o'sha insonlarni farzandlik mehri bilan otashin tarzida sevishi, o'z imkoniyati, iste'dodini ularga nisot etishi joiz bo'ladi. Muallif tomonidan bu talablar juda chiroyli uddalangan.

Kitob yetti qismdan iborat. Har bir qism avvalida tasavvuf va irfonning yetuk nazariyotchisi, dunyoga mashhur vatandoshimiz Aziziddin Nasafiyning «Komil inson kitobi»dan «Ey, darvesh» deb boshlanuvchi iqtiboslar keltirilgan. Bu hol quyida kechayotgan voqealarni tiriklik falsafasining dunyo miqyosidagi ko'zguvida tasavvur va tahlil qilishga ko'maklashadi. Avvalo, oilaning shajarasi keltirilib, necha yillar oldin o'tib ketgan xesh-agrabolar eslanadi, shu bahonada ularning muborak nomlariga bugunning nafasi tegadi. Davomidan ayni damlarda ancha faromush bo'lib qolgan burungi turmush tarzi, odamlarning bir-biriga mehr-oqibati, samimiyati, qondoshlik udumlari tilga olinadi. Voqealar girdobida bobosining eshagiga mingashib, bozorga borayotgan, undan saboq olayotgan va xizmatini qilayotgan nabira ham bor. Asosiy maqsadni yuzaga chiqarish – sho'ro istibdodini fosh qilish uchun esa

eng ung'ay yo'ldan boriladi: hujjatlarga navbat beriladi. Ular bilan tanishgan kitobxon ko'z o'ngida shafqatsiz xo'rlangan xalqimizning jonli surati namoyon bo'ladi. Har bir lavhada zulm va hurriyat istagi, nafrat va muhabbat zidmazi qo'yiladi, dildan qora kunlarning tezroq tugashini, tong otishini kitob qahramonlarigina emas, o'qirman ham istab qoladi.

Boboning hibs etilishiga sabab uning qishloq masjidda so'filik qilib, azon chaqirishi, odamlarni namozga chorlagani, suhbatlarida, va'zlarida islom dini talablarini tilga olib, odamlarni insofdiyonatga da'vat etgani bo'lgan. Bobo zamonaviy ilmlar bilan ham yaxshi tanish, tergov jarayonlarida o'sha davrning siyosiy arboblari nutqlaridagi so'zlaridan misol keltirib, ma'murlarni rosa dovdiratgan, hatto Pushkinni bilgan, shoirning erk istagidagi qarashlari jinoyat emasligini isbotlagan. Yana boboga qo'yilgan ayblardan biri o'g'lining armiyaga borishiga qarshi bo'lgani hisoblangan...

Muallif peshona teri bilan kun ko'rgan halol odamlarning turmush tarzini jonli lavhalarida chizar ekan, dahriylikka asoslangan tuzumning razotlatlari ko'z oldimizda gavdalanadi. ...Shig'il meva qilgan balx tut, uning hosiliga o'nlab odamlar intilgan, og'zi tekkanlarga tiriklik unsuri qaytgan. Ro'zg'ordagilar esa marvariddek mevalardan shinni, qiyom, mayiz tayyorlash uchun idishlarni tayyorlab qo'yibdi. Lekin «sovet pillasi»ga tut bargi kerak. Bir zumd qiyomat qo'padi, iltijolar, ko'z yoshlar, faryodlarga qaramay, tut kallaklanadi. Unday qilsa ham yoqmaydi, bunday qilsa ham yoqmaydi, xullas, «...sig'sa ham besh tanga, sig'masa ham...».

Shunday sharoitda e'tiqod bilan yashash naqadar og'ir bo'lgan, mabodo tuzumning ashulasini aytasang, pichog'ing quyruq ustida. Bundaylar ko'plab topilgan: qorin g'amida, mukofot ilinjida, kimdandir o'ch olish maqsadida... O'shalar ota-bola haqida ham maromiga yetkazib ko'rgazmalar bergan, o'zlari bilib-bilmay odamlar umriga zomin bo'lgan. Ular ham begona emas, qishloqdoshlar, davradoshlar, qaysilarigadir So'fi bobo otasi qilmagan yaxshilikni qilgan... Muallif hujjatlarni o'rganar ekan, ko'plab tanish kishilarni uchratadi, ular andisha qilib o'tirmay, baralla sotganlar. Muallif esa andisha qiladi: ularning ism-shariflarini oshkor qilmaydi...

Ayni paytda qatag'on davri tarixi oshkora tahlil qilinayapti, u kunlar dahshatlari butun bo'y-basti bilan namoyon bo'layapti. Bunday sa'y-harakatlar shunchaki «zamona zayli» tarzida emas, balki teran ma'naviy asoslarda aks etishi ayni muddao. Shunday bo'hron nega sodir bo'ldi, unga qanchalik zarurat bor

edi, uning yuzaga chiqishi, ya'ni qatag'on mashinasining ishlash ketishi qanday omillarga bog'liq bo'lgan va, aslida, maqsad nima edi, singari savollar bunday chiqishlarning asosida turishi maqsadga muvofiqdir. Negaki, o'tmish saboqlari ibrat, hushyorlik qo'ng'irogi, maqsad endi o'sha ko'rguliklarning takrorlanmasligi, uning bosh ko'tarishiga yo'l qo'ymaslik. Holbuki, mash'um «tozalash»larni qo'msovchilar har qadamda topiladi, «Bos» desa, har muyulishdan o'ntasi igr'ib chiqadi. Shukronalar bo'lsinki, Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan oqilona siyosat bunday qutqularga yo'l bermayapti.

Ma'lumki, respublika Oliy sudi begunoh jabrdiydalarni oqlash haqida qarorlar qabul qilayapti, bu hol jamoatchilikning e'tirofiga sazovor bo'lmoqda. G'ulom Mirzo ham yuzaga kelgan ro'shnolikdan foydalanib, ham imkoniyatidan kelib chiqib, otasi va bobosi hayoti bilan qiziqdi, ularga doir hujjatlarni topib, batafsil tanishib chiqdi va voqeani mufassal bayon etib, shu kitobni nashr ettirdi. Hujjatlar bilan tanishishda unga O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari bo'yicha milliy markazi, uning raisi akademik Akmal Saidov yaqindan yordam bergan. Kitobda o'sha kunlar nafasini o'zida saqlab kelayotgan ko'plab hujjatlardan ko'chirmalar keltiradi, asosan, boshqa millat vakillari tomonidan tuzilgan va imzolangan, tuzumning qiyofasini tasavvur qilishda asqatadigan bu qog'ozlar qanchalik ustomonlik bilan tuzilgan (ularda qandaydir «xalqaro huquqiy me'yorlar ham buzilgan») da'vo qilingan o'rinlar uchraydi) qatag'onlar shunchaki tasodif bo'lmagani, balki bosh maqsad millatni sindirish, uning qiyofasini buzib tashlash bo'lganini tasdiqlaydi.

G'ulom Mirzo bu kitobni nashr etish bilan ibratli yumushga ham qo'l urgan. Zero, har bir kishi o'z o'tmishini bilsa, ajdodlarini tanisa, ham jamiyat oldida mas'uliyati oshadi, ham to'g'ri yo'l tanlashda adashmaydi. Daraxt yaproqlarining ildiziga, tomiriga egilib turishida tabiiy bir hikmat yashiringanidek, har bir kishining o'z ajdodlarini tanishi, e'zozlashi, obro'si uchun kurashi ham chuqur ijtimoiy hikmatdir.



Hakim SATTORIY

Taqdir taqozosi bilan “Kommuna” (Farg’ona haqiqati”) gazetasida ishlagan paytlarim Alisher Ibodinovning samimiy, kamtar, eng asosiysi toza qalbli inson ekaniga amin bo’lganman. Ustoz sokin daryoga o’xshardi: vazmin, salobatli ayni paytda jo’shqin, ayrim hamkasblaridek odamlar bilan sun’iy muomala qilishni bilmas, agar shunday vaziyatga tushib qolsa, sukut saqlashni ma’qul ko’radiganlardan edi.

O’tgan hafta Yozuvchilar uyushmasi a’zosi Gulchehra Asronovaning “Xayollarida kelajagini ko’rgan adib” maqolasiga ko’zim tushib Alisher Ibodinov haqida nimadir yozmoqchi bo’ldim. Ammo maqoladagi fikrlarni qayta-qayta o’qib, shundayligicha, o’zgarishsiz e’lon qilishga qaror qildim. Faqat sarlavhani o’zgartirib, ushbu kirish so’zini yozishga jazm qildim.

Mirodil Abdurahmonov

# ASQAD MUXTORDEK BUYUK YOZUVCHI

## NEGA TINCH OKEANI FLOTIGA XAT YOZGAN EDI?

Farg’ona azal-azaldan olimu fozil, ijodkoru san’atkor farzandlari bilan jahoniy dovruc taratgan, millat va yurt sha’nini yuksaltirgan diyor sanaladi. Charxiy, Zavqiy, Huvaydo, Haziniy, Erkin Vohidov, Anvar Obidjon, Oxunjon Hakim, Enaxon Siddiqova, Maqsuda Ergasheva kabi adabiyotimiz darg’alari bilan behad faxrlanamiz, bugun ham ko’plab ustoz ijodkorlarimiz ovozi So’z maydonida baralla yangrayotir. Farg’onalik nosirlar safi hamon kengayayotganini alohida e’tirof etish joiz. Matluba Dehqon qizi, Alisher Ibodinov, G’ofur Po’latov, Nosir Zohidov, A’zam Ismoil (Bo’tayev), Hamid Burhonov, Karima Ashurova, Mo’tabar G’ulomova kabi ijodkorlar milliy adabiyotimizni qator romanlar bilan boyitdilar, aksari nosirlarimiz hozir ham yirik asarlar ustida ishlayaptilar. Ushbu safda uzoq yillar davomida samarali mehnat qilib, o’zbek hikoyachiligi hamda romanchiligiga munosib hissa qo’shgan zabardast yozuvchi Alisher Ibodinov nomi, ayniqsa, kitobxonlarga yaxshi tanish.

Ustoz adib bu yil qutlug’ 70 yoshini qarshilamoqda. O’rtda esa hayotning baland-past yo’llarida kechgan yarim asrlik ijodiy faoliyat... Talabalik yillaridayoq «Avtorning birinchi kitobi» rukni ostida «Gulsapsar hidi» nomli hikoyalar to’plami chop etilishi, shu nomli hamda «Dengizchi» hikoyalari o’sha davrning eng dongdor nashri bo’lmish «Guliston» jurnalida chop etilib, nufuzli mukofotga loyiq topilishi, milliy adabiyotimiz darg’asi Asqad Muxtorning yosh qalamkashga u harbiy xizmatni o’tayotgan Tinch okeani flotiga maktub yo’llashi bularning bari katta iste’dodning yarq etishi, ilk chaqnashi edi. Darvoqe, o’sha noma haqida yillar o’tib «Hayotimni o’zgartirgan xat» sarlavhasi bilan yozgan badihasida shunday satrlar bor: «Bolaligimda ko’p kitob o’qirdim. Ba’zan she’r, hikoyalari yozib turardim. Ko’ngil tubida yozuvchi bo’lishday hammadan yashirin, ammo olovli istak g’imirlardi. 8-sinfda o’qiyotganimda tuman gazetasi «Xayollarda kelajagim bor» sarlavhali bir she’rimni e’lon qilgan ham edi».

Alisher Ibodinovning tafakkur chashmasida sug’orilgan asarlarini o’qimagan o’zbek kitobxoni topilmasa kerak. Ha, bu mubolag’a emas uning hech bo’lmaganda bitta hikoyasini o’qigan odam buni so’zsiz his etadi va uning muxlisiga aylanadi. Bu asarlarda Inson manzarasi g’oyat nozik chizgilarda, ichki bir teranlik ila tasvirlanadiki, qahramonning kechinmalari beixtiyor o’quvchiga ko’chadi, uni o’yga toldiradi, o’z qalbini taftish etishga undaydi. Voqealar, munosabatlar ishonarliligidan xuddi qachonlardir shu tuyg’ularni yashab o’tgandek yoki yonginasida kimdir yashab o’tgan-u, u endigina payqayotgandek tuyuladi... Zotan, kishini o’z botiniga nazar tashlash, o’zini anglashga undovchi bunday adabiyotni olqishlash, ardoqlash

kerak. Alisher Ibodinov ana shunday baxtga musharraf bo’lgan yozuvchidir.

Adibning «O’rdak haqida ertak», «Ko’l bo’yida», «Bir tomchi yosh», «Quyosh ham olov» kabi hikoyalari yuqoridagi fikrlarimizga isbotdir. Ularda faqat o’zbek adabiyotiga, aynan Ibodinov qalamiga xos ayrim tasvirlar, tashbehlar borki, har biri alohida tadqiq etishga arziydi. Birgina «Ko’l bo’yida» nomli hikoyasidagi badiiy tasvirga e’tibor qaratamiz: «Atrofni o’shshaygan qoyalari qurshagan kaftdek vodiyo’rtasida ko’z yoshidek tiniq ko’l sokin mavjlanib yotar edi». Ko’z yoshidek tiniq ko’l bu adabiyin sof go’zallik bo’ldi ekan-a?! Keyingi bir o’rinda: «Oydinko’l ohista shivirlar, suv sathi yum-yum yig’layotgan go’zal yuzidagi moviy pardadek titrar edi», deyiladi. Bu nasrdagi poeziya!

Hikoya qahramonlariga musavvirona ta’rif berilganligini ham aytish kerak. Tog’ bag’rida istiqomat qiluvchi qariyani tasvirlar ekan: «Tosh devorli qo’rg’on darvozasi yonida kigiz qalpoqni qoshiga qadar bostirib kiyyan, nihoyatda kekka, lekin qisiq ko’zlarining dadil boqishi, cho’yandan quyilgandek og’ir gavdasini yengil ko’tarib yurishidan ellik-oltmish yoshlar chamasida ko’ringan alp kelbat chol qarshi oldi», deb yozadi adib va uni boricha ko’z oldingizga keltirib qo’yadi. Kampirning ta’rifi anchayin ixcham, biroq har bir jumlagi alohida ma’no yuklangan:

«Ichkaridan ikki yuzi qip-qizil, jikkak, sochiga so’lkovoy tangalar taqilgan kampir pildirab chiqdi». Buvining tutumi-yu, sadoqatiga bundan yorqin ishoraga hojat bo’lmasa kerak.

Alisher Ibodinov bisotida bu kabi o’nlab asl hikoyalari, qissalar, romanlar bor. Biz uning birgina ijod namunasiga qisqa to’xtalib, ona tilimizning beqiyos jozibasidan

bahra oldik, badiiyat zavqini tuydik. Yozuvchining barcha asarlarida, janri yoki hajmidan qat’i nazar, ana shunday mag’zi to’q mohiyat va nafosat ufurib turadi.

U mustaqillik yillarida yanada samarali ijod qildi. Hurlik nashidasidan ilhomlanib xalqimiz, Vatanimiz o’tmishiga doir tarixiy mavzularga qo’l urdi. «Qo’rboshi Madaminbek», «Xudoyorxonning so’nggi kunlari», «Latofat do’konidagi qatl», «Sohil yaqin, yaqin», «Zulm bazmi» kabi bir qator romanlari chop etildi, keng omma e’tiboriga tushdi.

Tarixiy mazmunga ega kitoblar chuqur izlanish hamda katta mehnat mahsuli ekanligi oynaday ravshan. Shu bilan birga, millatning kechmishi, jamiyatning kechlagi va bugungi qiyofasi insonlar taqdiri orqali yorqin ifoda etilgani bilan qimmatlidir. Vaholanki, Xudoyorxon va Madaminbekdek yirik tarixiy shaxslar haqida shunchaki arxivlarni varaqlab, badiiy asar yozib bo’lmaydi.

Shu ma’noda bu kitoblar mashqaqatli izlanishlar, qat’iyat natijasida dunyoga keldi, tarixiy haqiqatlar adabiyot sahifalariga muhrlandi, o’z o’quvchilarini topdi.

Yozuvchining umr yo’ldoshi, jurnalist ijodkor, hayot va ijod yukini baham ko’rib, birga qadam tashlagan hamkori Xolida opa bu yo’ldagi quvonch va iztiroblarining guvohi, birinchi o’quvchisi va tanqidchisidir. Opaning suhbatlaridan «Yaxshi asarlar hech qachon oson yozilmaydi» degan iboraning ne qadar haqiqat ekanligiga amin bo’lasiz. Ijod «to’lg’og’i», bedorlik, izlanish, qayta va qayta yozib o’chirish, ko’ngil to’lmaslik, yana va yana ishlash... va nihoyat qafasdan ozod etilgan qushdek yengil bo’lish saodati! Adibning bu chig’iriqdan so’zni his eta bilgan hamroh bilan o’tishi ham tolening yorug’ligidan.

Yaratganning marhamatidandir. Ustoz Alisher Ibodinov nainki

mohir yozuvchi, balki nigohi teran jurnalist sifatida ham elga tanilgan. Mehnat faoliyati davomida otaxon gazetaimiz «Farg’ona haqiqati»da bo’lim mudiri, bosh muharrir lavozimlarida, «O’zbekiston ovozi» hamda «Ishonch» gazetalarining viloyat muxbiri vazifasida ishlagan. «Davrovozi» hamda «Adolat yo’li» gazetalariga bosh muharrir bo’lgan. Xalq ichida yurib, uning dardini his etib qalam tebratgan, dolzarb mavzularni gazeta sahifalariga olib chiqqan, so’z qudrati bilan yurt taraqqiyotiga xizmat qilgan. U 80-90-yillarda boshqargan viloyat prokuraturasining nashri - «Adolat yo’li»ning adadi 35 ming nusxagacha yetgani ma’lum. Bu esa muharrirning ijodiy va tashkilotchilik salohiyati, o’ziga xos yondashuvi, mehnatkashligining mahsulidir. Albatta, jurnalistika ijodning fidokorlik talab etuvchi alohida jabhasi. U gazetachilikka o’zini bag’ishlab ishladi, adabiy faoliyati biroz susaygandek ham bo’ldi. Ammo keyinchalik o’sha yillarda qalami namada charxlangani, detektiv janrida mahorati oshgani ayon bo’ldi. Bu o’sish yangi qissalar, romanlarda yuzaga chiqdi.

Alisher Ibodinovning tinimsiz mehnatlari yuqori baholanib, 2021-yili «Mehnat shuhrati» ordeni bilan mukofotlangan. Badiiy asarlari o’zbek adabiyotining oltin fondidan joy egalladi, chet tillarga o’girilib, xorijda ham o’z muxlislarini topdi. Bu asarlar sevib o’qilgan va o’qilmoqda. Shundayin e’tiroflarga sazovor adib tabiatan kamtar, kamsuqum inson. Ayni kunda Xolida opa bilan to’rt farzand, to’qqiz nabiraning baxti-kamolini ko’rib umrguzaronlik qilyaptilar. Ular hamon qalamkash hamkorlar va bir-birining suyanchig’idir. Shunday ekan, adibning bositir hali yana yangidan-yangi, durdona asarlar bilan boyishiga ishonamiz.

✓ Izhor



# Ikkinimiz

(Odil Ikromga)

Ehtimol, men bu maktubni ikki-uch oy oldin, yura olmay to’shakka mixlanib qolgan kunlarimda, siz meni yelkangizda opichlab ko’tarib yurgan lahzalarda yozgandirman. Tunlari og’riqdan to’lg’onib yotgan kechalarimda, siz bunga chiday olmay, ko’zingizni chirt yumib badanimga igna sanchgan daqiqalarda yozgandirman. Operatsiyadan chiqqanidan keyin go’dak kabi avaylab, oq yuvib, oq taraganingizda, dardimni o’zingizga olib dard chekkaningizda, belimdagi yaramni ko’rib, tuni bilan belingiz og’rib chiqqanida yozgandirman.

Ehtimol, undan ancha oldin, 2019-yilning avgustida, siz bilan tanishgan lahzalarimdayoq yozilgandir bu maktub. Ehtimol, siz bilan yashagan har kunim, har onim, har nafasimda yozib yurgandirman. Ehtimol... ehtimol, yanayam oldinroq, sizni hali tanimagan-bilmagan, qismatimga bitilganingiz yetti uxlab tushimga kirmagan, faqat siz kabi balandu xokisor bir insonni orzu qilgan paytlarimda yozib ulgurandirman? Allaqachonlar tug’ilgan bu maktub endi, xastalikdan so’ng oyoqqa turib, tetapoya qilayotgan go’dakday sizni

qo’ltiqlab arang yurayotgan kunlarimda qog’ozga tushayotir, xolos.

Bilaman, siz maktub olishni, xususan, ayollardan maktub olishni xushlamaysiz. Chunki maktubni malomatlar o’chog’i, deb bilasiz. Chunki ko’pincha maktub ayriliqda bitilgan. Chunki ko’pincha ayriliq sizning ko’nglingiz sovg’ach sodir bo’lgan. Chunki ko’pincha odamlar aybni o’zidan emas, o’zgalardan izlashgan, o’zgalarning ko’nglini pisand etmay, o’z ko’ngli bilan hisoblashgan. Chunki ko’pincha baxt berib yurgan odamning bermay qo’rgan baxti “baxtsizlik” o’rnida o’tgan.

Mening bu maktubim firoqda emas, diydor onlarida, yoningizda o’tirib yozilayotir, azizim. Kecha, avgustning iliq shabbodasi yetovida, ajib bir tashnalik bilan Do’rmon bog’larida sayr etib yurgandim, Iqbol Qo’shshayevani ko’rib qoldim. Tabiiyki, dard chekib, endigina oyoqqa turgan odamdan yaqin o’tmishdagi dardchil kechinmalar haqida so’raladi. “Erkalaniib yotdim-da, – dedim hazillashib. – Xizmatimda, kimsan, Odil Ikrom bo’ldi!” Hali bu voqealar haqida yozish niyatim borligini ham bildirdim. “Yozing, opa, – dedi Iqbol, – orqaga tashlamang,

hozir yozing! Aytadigan gapingizni tirigida aytib qoling!” Iqbol aytganiday, aytadigan gapimni tirigimizda aytib qolishga qaror qildim.

Nimadan boshlash kerak? Qanday yozish kerak? Men bir-biridan chiroyli kiyimlarga liq to’la shkak oldida turgan ayol kabi qiynaldim. Tanlash imkonini qancha ko’p bo’lsa, tanlash shuncha qiyin, aytar gaping qancha ko’p bo’lsa, boshlash shuncha qiyin. Esse yozmoqchi edim, ammo sizni essega sig’dirib bo’lmadi, ortib qolaverdingiz. “Yaxshisi, bir kitob qilsangiz-chi?” deb qoldi Go’zal Begim. Uning maslahatiga amal qildim.

Avvaliga bu yozilma odamlarga siz haqingizda so’zlay boshlagandi. Ammo yozayotib, odamlarga hamma gapni aytib bo’lmagligini, beixtiyor o’zimni cheklayotganimni sezib qoldim. Axir, mening niyatim omma oldida sizdan yo o’zimdan qahramon yasash emas-ku. Shunchaki, ichimdagi bor gapimni ro’y-rost to’kib-solish-ku. Xullas, hammasini o’zingizga aytishga qaror qildim, shakltni o’zgartirgan edim, mazmun ochila boshladi.

Oydinisso YULDASHEVA  
(Davomi bor)

29-noyabr, 2023-yil  
№41 (1229) chorshanba



## Navoiylik «Nodirai davronlar»

Navoiy viloyati Ma’naviyat va ma’rifat markazida «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Navoiy viloyati Kengashi tomonidan «Nodirai davronlar» respublika ko’rik-tanlovining viloyat bosqichi o’tkazildi.

Ko’rik-tanlovda Oila va xotin-qizlar qo’mitasi qoshidagi «Qizlarjon» hamda Yoshlar ishlari agentligi qoshidagi «Qizlar ovozi» klublariga a’zo 18 yoshdan 30 yoshgacha bo’lgan siyosatga qiziquvchi, yetakchilik qobiliyatiga ega, jamiyatda ijtimoiy faol xotin-qizlar o’zaro bahslashdi.

Tadbir avvalida so’zga chiqqanlar ushbu tanlovda ishtirok etayotgan qizlar To’maris, Nodirabegim, Uvaysiy va Zulfiyaxonim kabi ajdodlarimiz izdoshlari ekanliklarini ta’kidlab, ularga omad tilashdi. – Tanlovni o’tkazishdan



asosiy maqsad xotin-qizlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat tuyg’usini shakllantirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishdan iboratdir, – deydi partiya viloyat Kengashi bosh mutaxassisi Feruza Baqoyeva. – Shuningdek, tanlovda ishtirokchilarning siyosiy yetakchilik qobiliyatini yuzaga chiqarish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda faol ishtirokini ta’minlash, qonun ijodkorligi faoliyatiga keng jalb etish, partiya g’oyasi, dasturiy maqsad va vazifalarini qo’llab-quvvatlovchi hamda targ’ib etuvchi siyosiy yetakchilarning yangi avlodini tarbiyalash ham nazarda tutilgan. Tanlov jarayonida ishtirokchilar ikki shart asosida o’zaro bahsga kirishdi. Ular «Bexato yozamiz» deb nomlangan shartda davlat tilidagi savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida diktant yozishgan bo’lsa, «Qadriyatlariga tayangan taraqqiyot» mavzusida milliy qadriyatlarni asrash, targ’ib qilish va yanada boyitishga qaratilgan loyihalarining taqdimotini o’tkazishdi.

Yakuniy natijalarga ko’ra, 1-o’rinni Iroda Bahronova, 2-o’rinni Sevinch Islomova, 3-o’rinni Nozanin Hamidova egalladi. G’olib va sovrindorlar partiya viloyat Kengashining «Diplom» va esdalik sovg’alari bilan taqdirlandi.

A.BO’RIYEV, O’ZA

# ОРСИЗЛИК-2

**ЁХУД “МИЛЛИЙ ТИКЛАНИШ” ПАРТИЯСИДАН ЯНА НИМА КУТИШ МУМКИН ДЕГАН ДЎСТЛАРИМИЗГА!**

Кейинги йилларда хотин-қизлар, айниқса, вояга етмаган қизларга нисбатан жинсий таъжовулар сони хайратланарли даражада ошмоқда. Хусусан, АҚШда 12 ёшдан 16 ёшгача бўлган қизларнинг 83 фоизи турли зўравонликларга дучор бўлган бўлса, Англияда 16 ёшдан 59 ёшгача бўлган хотин-қизларнинг ҳар бештадан биттаси, Европада эса ҳар уч аёлдан бири таъжовузга учрайпти. Етакчилар ўнталигини эса ЖАР, Швеция, Англия, Уэльс, Ҳиндистон, Янги Зеландия, Канада, Австралия, Зимбабве, Дания ва Финляндия банд этиб турибди.

Минг афсуски, юртимизда ҳам ана шундай жиноятлари содир этиш янглик бўлмай қолди. Шунинг учун ҳам қонунийлик тақомиллаштириляпти, айрим нормалар қучайтирилмоқда. Хусусан, қуни кеча Ҳукуматнинг махсус қарори билан вояга етмаганларга нисбатан жинсий зўравонлик содир этган шахслар реестрини юритиш тартиби ҳам тасдиқланди...

Шу ўринда ҳақли бир савол туғилади: бундан 10-15 йил аввал қасдан одам ўлдириш, вояга етмаган қизларнинг номуслига тегиш, ёшлар иштирокидаги порнографик маҳсулотларни тарқатиш, уларни жалб этган ҳолда қўшмачилик қилиш, фоҳишахоналар ташкил этиш сингари жиноятлар учун ҳукм қилинган шахсларнинг махсус реестрини юритиш ҳақида ҳеч ўйлаб кўрганмидик? Жилла курси жамоатчиликда шунга ишора бўлганмиди?

Демокчимизки, бу турдаги жиноятлар кеча ёки бугун пайдо бўлиб қолгани йўқ. Бу ҳодисанинг оғрикли асоратлари билан бирга ўз тарихи ҳам бор...

Ачинарлиси, ушбу масалага бепасанд қараганимиз ҳамда айрим ақлли юртдошларимиз таъбир билан айтганда бу борадаги «сафсата»ларга кўз юмганимиз оқибатида шу ҳолга келдик.

БМТ экспертларининг қайд этишларича, кўплаб Шарқ мамлакатларида жабранлувчилар бундай ҳолатни нормал ҳаёт деб қабул қилмоқдалар ёки ўз оиласининг «оғрикли» сирни овозга бўлмаслиги, унинг бузилиб кетмаслиги учун бирон-бир идорага мурожаат қилмаяптилар...

Халқона айтганда, «ўзбекчилик»ка боришяпти.

Фақат ўша орсиз пичоқ суякка қадалгандан кейингина дод солишяпти. Биз ҳам бу масалада дунё халқларидан ортда қолмаямиз. Шунинг учун ҳам таъжовузорликка мойил ёки айнан шундай шахсларнинг бутун бошли рўйхатини шакллантиришга қарор қилдик.

Олий Мажлис Сенати қабул қилган ҳужжатга кўра, энди вояга етмаганларга нисбатан таъйик ва зўравонлик содир этган шахсларнинг таълим-тарбия масканлари, болалар спорти ва ижодий ташкилотларда ишлаши батамом тақиқланяпти. Қайд этилишича, мазкур реестрнинг юритилиши муаммонинг оқибатлари билан эмас, айнан келиб чиқиш сабаблари, аниқроғи, илдизи билан курашиш имконини беради. Албатта, тақиқлаш, рўйхатлар тузиш, яхши-ёмонларни ажратиш натижа беради, деган умиддамиз. Аммо бизнингча, бу масаланинг бир томони, ҳолос.

Хабарингиз бор, газетамизнинг 39-сонига «Жазавага тушаётган орсизлик миллат учун, янги авлод учун қимматга тушмаяптими?» сарлавҳали мақола эълон қилган эдик. Ўша мақолада ёшларнинг онги ва қарашларини ўзгартиришга ҳисса қўшаётган янги бир қатлам — «вайно»чиларнинг ҳатолари хусусида ўз мулоҳазаларимизни билдиригандик. Ижтимоий тармоқларда турлича талқин қилинган ушбу мақолага нисбатан турлича фикрлар ҳам билдирилди. Мисол учун, сиёсий партияларнинг ҳар бир қадамини «чуқур таҳлил» қилиб, муносабат билдиришга одатланган POLEMICO портали: (матн тахирисиз берилмоқда) «Алишер Қодиров партияси газетаси вайнерларга нисбатан чора кўришни сўрамоқда!

«Миллий тикланиш» партияси газетасида депутатларни диққатга чакирувчи "Жазавага тушаётган орсизлик миллат учун, янги авлод учун қимматга тушмаяптими?" номли мақола эълон қилинибди. Газета ёш вайнерларни маънавий таҳдидчиларга чиқариб, уларга нисбатан чора кўришни сўрамоқда. Шунингдек қонун ижодкорларини ҳам бу мавзуда бош қотиришга чакирган».

Mufasa телеграм канали эса «бу партиядан бошқа нима ҳам кутиш мумкин?» дея киноя қилибди.

Биз аввало, газетамиздаги чиқишларга бефарқ бўлмаётган ҳамкасбларимизга самимий миннатдорлик билдиришмоқчимиз. Аммо айрим ҳамкасбларимизнинг чиқишларидан кейин гўё мақолани ўқимай туриб фикр юритибдиларда дегимиз ҳам келди.

Чунки уларнинг аксарияти биз тоғдан гапирсак, богдан туриб жавоб қайтарганлар. Яъни, биз ўз худк-атвори, тарбия-сизлиги, бошқачароқ айтганда ўзининг бузуқ дунёқараши билан миллионлаб томошабинлар, айниқса, ёшларга «буюк асар» тақдим этаётганлар фаолияти яхшиликка олиб бормаслигини танқид қилгандик.

Алишер Қодировнинг турли чиқишлари эвазига «нон» топаётган айрим «сайтчи»лар эса газета мақоласию, унинг муаллифи ва мақоланинг мазмуни бир четда қолиб, «бу партиядан яна нима кутиш мумкин» дея ҳар доимгидек бир томонлама халқпарварлик қилишдан нарига ўтолмадилар. Аммо шундай бўлса-да, уларнинг ўринли ва ўринсиз саволларига ҳам жавоб қайтарилиши керак, деб ҳисобладик.

Ҳа, чиндан ҳам газета муас-сиси «Миллий тикланиш» демо-

**Аваз Охун ҳам сатира йўналишидаги ижодкорлардан бири. Нега уни миллионлаб юртдошларимиз севаапти, ҳеч иккиланмай ота-онаси, аёли, фарзандлари билан унинг концертларига боришяпти? Чунки у ўз репертуарини бўлар-бўлмас «яланғоч» ҳазиллар билан тўлдириб, ахлоқ меъёрларини бузаётгани йўқ.**

кратик партияси. Ва, бу партия ўз фаолиятининг дастлабки йиллариданоқ тарбия ва таълим масаласини байроқка айлан-тирган. Айрим партияларга ўхшаб хали сўл, хали ўнг йўлни танлаётгани ҳам йўқ. «Миллий тикланиш» бугун ҳам ана шу танлаган йўлида устувор.

Олмани тагига шафтоли тушмайди, деганларидек ушбу партия наشري ҳам ана шу ғояни изчил тарғиб этмоқда. «Орсизлик» мақоласи эса таҳририятнинг йиллик медиа режасидан ўрин олган туркум мақолаларнинг биринчиси бўлиб, мақола партия илгари сураётган ғоя ва мақсадларга ҳамоҳанг тарзда ёзилганди деб ўйлаймиз. Биз яна такрор ва такрор қайтаришимиз мумкин: журналистми, блогерми, вайнерми томошабин, ўқувчи ёки тингловчи олдида ижтимоий масъулиятини унутмаслиги, аксинча, доим ёдда тутиши шарт! Нега, Ғани Аъзамов, Наби Раҳимов, Эргаш Қаримов, Обид Асомов, Мирзабек Холмедов каби санъаткорларнинг бутун бир авлоди ёлгонни эмас тўғрисиқликини, риёни эмас, адолатни, тарбия-сизликни эмас, ахлоқийликни тарғиб қилиб келган юрти-мизда айрим худки бузуқлар ўзларининг қир қаричлари билан сўз ва матбуот эркинлиги соясида бузуқликни тарғиб қилиши керак?! Нега бир килограмм ун ўғирлаган одам жиноятчи саналадию, бузуқликни тарғиб этаётган псевдосанъаткор фаолиятига муносиб баҳо берилмаслиги керак?

Тан олайлик: орсизлик оддий иллат эмас. У миллат гурурини ўлдиради, жамиятда номуссизликни оддий воқеликка айлантиради, энг ёмони, ёшларда номуссизликка рағбат уйғотади.



**Орсизлик оддий иллат эмас. У миллат гурурини ўлдиради, жамиятда номуссизликни оддий воқеликка айлантиради, энг ёмони, ёшларда номуссизликка рағбат уйғотади.**

Хўш, айтинг-чи, ким, қайси ота-она ўз ўғлининг орсиз, номуссиз бўлиб ўлғайишини истайди. Ёки саволни бошқача қўямиз: қайси бир ота-она фарзанди орқасидан мактов, раҳмат эшитишни истамайди? Бугунги бефарқлигимиз айниқса, ижтимоий тармоқка нисбатан либераллигимиз, энг ёмони, юзхотирчилик, ўзбекчилигимиз туфайли айрим «даҳо» гуруҳларнинг маза-матрасиз концертларини томоша қиляпмиз, агар шу кетишда давом этаверсак, индамасак, уларга ҳам, уларни томоша қиляётганларга ҳам душманлик қилган бўлмаймизми?



Шу ўринда бир мисол келтирсак: шу кунларда трендга чиққан Аваз Охун ҳам сатира йўналишидаги ижодкорлардан бири. Нега уни миллионлаб юртдошларимиз ардоқляпти, ҳеч иккиланмай ота-онаси, аёли, фарзандлари билан концертларига боришяпти? Чунки у ўз репертуарини «яланғоч» «асар»лар билан тўлдириб, ахлоқ меъёрларини бузаётгани йўқ. Шу миллат фарзанди сифатида нима мумкин, нима мумкин эмаслигини, санъатда ҳам муайян чегаралар борлигини ҳис қиляпти. Аваз Охунга ўхшаган ор-номусли ижодкорлар омма олдидаги бугунги беҳаё чиқишлар эртага ҳаммамиз, айниқса, ёш авлодга, янгиланаётган жамиятга қимматга тушишини яхши билишади. Улар орсизлик мафкураси бир кун келиб ўзи ва оиласи учун ҳам маънавий зарар келтириши мумкинлигини англайдилар. Афсуски, бугун ҳатто дунё аҳли тан олган чин санъат аҳли изидан бораётган бундай сўз усталари бармоқ билан санарли.

Маълумки, жаҳон тажрибаси, тарихи миллий мафкура, айниқса, миллий кадриятларни оёқ ости қилганлар кун келиб қандай ҳолатга тушганини кўрсатиб қўйяпти. Буюк санъатшунослардан бири «аёл либосини кия бошладингми, сен қашшоқ актёрга айланибсан, аёл-эркак муносабатларидан сўз очдингми, бу менинг ўлган куним, деваяр» деган экан. Бу гап пул учун, обрў-эътибор учун ёки хайдалган, сиғдирилмаган сахналарга яна қайтиш мақсадида арзон ўйларни излаётган айрим вайнчилар учун айтилгандек гўё.

Тўғри, беш қўл баробар эмас. Аммо жамиятни, ёшларни бузуқликка етаклаш учун ғояларини жамиятга «едирмоқчи» бўлаётганлар ўз хатти-ҳаракатлари учун жавоб беришлари шарт!

Ҳеч бир замонавийлик уларга маънавиятимиз, кадрияту, миллийлигимизга даҳл қилиш ҳуқуқини бермайди? Таассуфки, дунёда илдиз отишга улгур-

ган диний экстремизм, радикализм ва терроризм каби ёт оқимларнинг қанғалига тушиб, қурбон бўлаётганларнинг кўпчилиги айнан маънан ожиз ёшлар экани ҳеч кимга сир эмас. Тўғри, биргина «вайно»чи-қизикчиларнинг чиқишларини тартибга солиш билан маънавиятимиз юксалиб қолмайди. Аммо ижод эркинлиги деб «қачитки» ҳазиллар орқали ҳаёсизликни тарғиб қиляётганларнинг миллатимиз юзига қора чаплаётганини, айнан ёш авлод тарбиясига салбий таъсир ўтказётганини қузағиб ўтириш қимматга тушиши муқаррарлигини такрорлашдан қарчамаймиз.

Шу ўринда танганинг иккинчи томони борлигини ҳам айтиш керак. Бугун ёшларга ибратли видеолар улашаётган ижодий жамоа ва вайнерлар ҳам бор. Аммо афсуски, улар жуда оз. Тарозига тортилса, «орсизлик» тарғиб қилинган видеолар тош босяпти... Таъкидланганидек, ибратли видео олиб, ижтимоий тармоққа жойлаётганлар ҳам шу миллат фарзандлари. Аммо улар ўз иқтидорини алмоий-анжойи чиқишларга эмас, эзгуликларга сарфлашаётгани эътиборга молик.

Мисол учун, ота-онага бўлган ҳурмат, «келин ҳам бировнинг қизи» эканини уқтириш, ёмон қайнона, инсофсиз келин, таъмагир қуввларга кўзгу тутаётган ижодий жамоаларни ҳар қанча олқишласак оз.

Аммо аччиқ ҳақиқат шундаки, янги авлод вакиллари-нинг кўпчилиги ўйламай-нетмай «ҳазм қилиниши» осон бўлган чиқишларга кўпроқ ўч бўляптилар. Бу эса оғоҳлик қўнғирогини янада баландроқ қалиш лозимлигини ҳам англа-тади.

Хуллас, мавзуга оид мулоҳазани узоқ давом эттириш, маънавий-ғоявий таҳдидларнинг оқибатлари хусусида кўп гапир-иш мумкин. Балки Сизда ҳам бу борада фикр-мулоҳаза, эъти-розлар бордир...

Унда қутамиз...

Меҳри ЖАХОН

# КОНКУРД

## «ичлик»

### ёхуд тупрокқа қоришган орзулар

Афсуски, катагон йилларининг шафкатсиз тузуми юзлаб миллат оидинларини ўз домига тортигани тарихнинг қора саҳифаларига қонли харфлар билан битилган. Уйдирма-ю, бўхтон асосий қуроли бўлган тизим «дохий»лари эса миллатни маънан махв этиш учун асосий эътиборни унинг оидинларини йўқотишга қаратгани ҳақида билганингиз сари қўнглингизга оғир ғашлик инаверади.

Ана шундай чиркин бир давр «овчи»ларининг қармоғига илинган журналист Аъзам Аюбов номи миллий матбуотнинг катта ва ўрта авлод вакилларига яхши таниш. Бироқ замонавий журналистиканинг ёш вакиллари-чи, у кишини танишадими?

XX асрнинг 1920-30-йиллари ўзбек матбуотини ўрганар эканмиз, бу даврда ўзбек журналистикаси тараққиёти йўлида фидойиларча меҳнат қилган Чўлпон, Ғози Юнус, Мирмуҳсин Шермуҳаммедов, Санжар Сиддиқ, Абдулла Қамчинбек, Муҳаммад Ҳасан, Аъзам Аюбов каби ёзувчи ва журналистларни кўраимиз...

Журналист Аъзам Аюбов 1904 йилнинг 21 августида Тошкентнинг «Раис кўча» маҳалласида туғилган. Унинг отаси тошкентлик бир бойнинг қўлида саркор ва газмол савдоси билан шуғулланган. 1917 йили отасининг вафотидан сўнг, Аъзам Аюб мактабни ташлаб, рўзгор юкини елкасига олишга мажбур бўлади. У оилани боқиш билан бирга 1918 йилдан бошлаб Мунаввар қори Абдурашидхоновнинг Хадрадаги етти йиллик «Намуна» мактабиди ўқишни давом эттириб, Фитрат ва Қайом Рамазонлардан сабоқ олади. 1919 йилга келиб устозининг тавсияси билан «Турон» кутубхонасига китоб ташув-

чи бўлиб ишга жойлашади. Ишдан бўш вақтларида эса ўзбек, рус, турк тилларидаги китобларни мутлоаа қилади. Россия Телеграф агентлиги Туркистон бўлими томонидан нашр этилган «РосТА» деворий газетасини мунтазам ўқиб боради. «Иштирокиюн» ва «РосТА» деворий газеталари тахририятига бориб, у ерда Мирмулла Шермуҳаммад, Чўлпон, Ғози Юнус кабилар билан танишади. Тез орада «Иштирокиюн» газетасига мусахҳиҳ ёрдамчиси бўлиб ишга жойлашади. 1920 йилнинг ўрталарига келиб эса ёш бухороликларнинг «Тонг» журнаliga мақолаларни оққа кўчирувчи котиб-мирза бўлиб ишга қиради. Икки нашрдаги фаолияти давомида Абдулла Авлоний, Чўлпон, Фитрат каби шоир, ёзувчи ва журналистлардан адабиёт ва журналистика сирларини ўрганади.

Қайд этиш жоизки, Аъзам Аюб 1922 йилнинг сентябр ойидан бошлаб «Туркистон» (эски номи «Қизил байроқ») газетасида дастлаб бўлим мудири, кейин эса масъул котиб ўринбосари лавозимларига кўтарилади. Кейинроқ, яъни 1925 йилдан «Қизил Ўзбекистон» номи билан чиқа бошлаган мазкур нашрда 1937 йилга қадар масъул котиб ўринбосари вазифасида ишлайди. Аъзам Аюб фаолият олиб бораётган тахририятнинг эътиборли томони шунда эдики, бу ер Абдулла Қодирий, Элбек, Ойбек ва Боту сингари ўша давр маърифатпарварлари келиб, ўзаро фикр алмашадиган маскан эди. Бу Аъзам Аюб сингари энди танила бошлаган журналистлар учун катта имконият берарди. Улар билан мулоқот чоғида ёш журналист ҳали тажрибаси етарли эмаслигини англайди. Шу боис, аввал ўрта мактабни тугатади. Сўнг, САГУнинг ижтимоий фанлар факультетида ўқийди. 1925 йилда «Камбағал деҳқон» газетаси ва 1926 – 1928 йилларда «Қизил Ўзбекистон» газетасининг иловаси бўлган «Ер юзи» номли суратли журналга масъул котиблик қилади. 1931 – 1937 йиллар давомида бу журнал «Машъала», «Гулистон» номлари билан чиқади ва Аъзам Аюбга муҳаррир ўринбосарлиги вазифаси топширилади. Эътиборли томони, шижоатли журналист матбуот ишлари билан кифояланиб қолмай, адабий жараёнда ҳам фаол иштирок этади. Даврий нашрларда «Аъзам Аюб», «Чигатой», «Аъзам», «Аюб», «Жимит», «Газетчи», «Томошачи», «Тошкентчи», «А. А.» каби тахаллуслар остида санъат ва адабий ҳаётга доир қатор тақризларини эълон қилади. Афсуски, мустабид тузум кутилмаганда матбуотчи ва таржимон сифатида эндигина танила бошлаган Аъзам Аюбнинг ҳаёти ва ижодига нуқта қўяди.

У буржуа миллатчиси, 1929 йилдан Ўзбекистонни совет давлатидан ажратиш олишни мақсад қилган махфий ташкилот аъзоси деган тухмат билан ЎзССР ЖКнинг 66-моддасининг 1-қисми ва 67-моддаси



бўйича айбдор деб топилади ҳамда шу асосда 1937 йлнинг 15 октябрида унинг Тошкент шахри, Абдулла Тўқай кўчасидаги 19-рақамли уйида тинтув ўтказилиб, қамоққа олинади. Унинг ортидан турмуш ўртоғи Сожида Носирова,

1937 йилнинг 15 ноябрида НКВД терговчиси Тригулов томонидан тайёрланган қарорда ёзилишича, Аъзам Аюб 1929 йилдан ўнг троцкийчи ва миллатчи бўлган. Ташкилотга эса А.Икромов ва Қ.Сорокинлар томонидан жалб қилинган. Унгача «Ёш юраклар»нинг ташкилотчиларидан бири сифатида фаолият олиб борган. А.Фитрат, О.Ҳошим, Қ.Рамазон билан бирга Тил ва адабиёт институтида, М.Ҳасан билан бирга «Қизил Ўзбекистон», «Правда Востока», «Муштум», «Туркистон» газеталарида советларга қарши кураш олиб боргани «аниқланган».

Хуллас, А.Аюбов ЎзССР ЖК 57-моддасининг 1-қисми бўйича Ватанга хоинликда айбланади. Айблов хулосаси 1937 йилнинг декабрида ёзилган бўлса-да, бу сана 1938 йил 3 октябрь деб қаламда тузатилади. НКВД «учлиги»нинг ёпиқ суди 1938 йил 5 октябрь куни соат 11.55 да бошланиб, 12.05 гача давом этади. Сўнгра Айблов хулосаси ўқиб эшитирилади. Унга кўра, Аъзам Аюбов ЎзССР ЖКнинг 58, 64, 67-моддалари билан айбдор деб топилади ва олий жазага ҳукм қилинади. Ҳукм 1938 йил 4 октябрда НКВД Ҳарбий Коллегиасининг шу ҳақидаги қарори чиқмасдан 1 кун ол-

мақоласида эса аҳоли саломатлиги учун ёзги таътил вақтида саёҳатлар ташкил этишга чақирилади. «Чойнакнинг янги вазифаси» мақоласида эса муаллиф янги ҳаёт ўчоқлари бўлган чойхона ва клубларнинг ичкилик тарғиботхонасига айланиб қолаётганидан ташвишга тушади. Ҳатто маънавий соҳа вакиллари - ўқитувчиларнинг ҳам тадбирлари ароқсиз ўтмай қолганидан куонади. У мақоласини: «Ота-оналар ўз болаларига қандай ўрнатқ бўлмоқда?» деган савол билан якунлайди. Аъзам Аюбнинг «Сўлак» ҳикояси қосиб Солиҳ ака тилидан ёзилган бўлиб, унда асосан, қалбаки чирой ортидан қувувчи қизларнинг оёқларига ботинка, амрикон этик кийишлари ёзилади: «Булар мода деса тойдан ташлайди», дейди қосиб. У шунинг натижасида маҳаллий хўнарамандларнинг касби касодга учраётганигидан нолиди. Ёзувчи қосиблар тайёрлаган маҳси-кавушларнинг маҳаллий маҳсулотлар асосида тайёрланиши, уларнинг саломатлик учун фойдали эканига эътибор қаратади. «Саҳнадаги қаҳрамон - омма» сарлавхали тақризида эса Москва театрларидаги янгиликларни ўзбек театрларига

” 1925 йилда «Камбағал деҳқон» газетаси ва 1926 – 1928 йилларда «Қизил Ўзбекистон» газетасининг иловаси бўлган «Ер юзи» номли суратли журналга масъул котиблик қилади. 1931 – 1937 йиллар давомида бу журнал «Машъала», «Гулистон» номлари билан чиқади ва Аъзам Аюбга муҳаррир ўринбосарлиги вазифаси топширилади.

укаси Ориф Аюбов, сингиллари Муборак ва Мушаррафлар бўзлаб қолади. А.Аюбов ЎзССР НКВДнинг 4-бўлими бошлиғи Агабеков қарори билан 1937 йилнинг 2 ноябрида биринчи марта терговга чақирилиб, пантуркизмда айбланади. 1937 йил 4 ноябрда эса А.Аюбовнинг қаршиликларини синдириш мақсадида СССР НКВД генерал комиссари Ежов номига ёзилган аризага мажбуран кўл қўйдирадидлар. Унда ўзининг оилада миллий тарбия олгани ва бу уни А.Икромовга яқинлаштиргани, ёшлиқдан советлар ҳокимиятига қарши кураш олиб боргани, 1929 йилда Қосим Сорокин билан бирга миллатчилик ташкилотига киргани ёзилган эди. 1937 йилнинг 5 ноябрида Аъзам Аюбов илк сўроқ баённомасига имзо чекади. Унда: «Аъзам Аюб 1918 йили Хадрадаги мактабда Ҳайдар афанди, Фитрат, Қайом Рамазонлардан таълим олган. Мактабда ташкил этилган «Ёш юраклар» ташкилотига қабул қилинган. 1919 йилдан «Турон»да ишлаб, Авлоний, М.Уйгур, Ф.Хўжаев, Абдувоҳид қори ва бошқалар билан танишган. 1920 йил охирларидан «Тонг»да ишлаб, Фитрат, Н.Тўрақулов, Б.Солиев, А.Қодирий, Ботулар билан танишган. Сўнг А.Икромов муҳаррир бўлган «Туркистон»га ишга келган. Бу пайтда Қ.Сорокин газетда техник муҳаррир бўлиб ишлаган. У ерда Ғози Олим Юнусов, С.Сиддиқ, Чўлпонлар бор эди. 1924 йили А.Икромов Туркистон Компартияси Марказий Комитетига ишга ўтгач, А.Аюбов Қ.Сорокин билан бирга «Туркистон», «Қизил Ўзбекистон» газеталарида иш олиб борган», – деб ёзилган эди.

дин ижро этилади. Шу тариқа туртнинг яна бир асл фарзанда халқ нисбатан шафқатсиз ҳукм ўқилиб, унинг ҳаётига нуқта қўйилади.

Алоҳида қайд этиш жоизки, шу қадар осон, шу қадар совуққонлик билан амалга оширилган ҳар бир «ижро» миллати, Ватани учун ёниб, жон фидо қилишдага тайёр, бор-йўқ айби илм олиб, уни юрт истиқболи учун сарфлаш бўлган юзлаб оидинларимизнинг нафасларини сўндирган.

Аммо ҳақиқат бир кун ғалаба қозониши муқаррар бўлгани ҳолда Аъзам Аюбовнинг ўлимидан қарийб 20 йил ўтгач, унинг иши қайта кўриб чиқилади. Яъни, 1957 йилнинг 1 августида синглиси Муборак Аюбовага журналист Аъзам Аюбовнинг оқлангани ҳақида маълум қилинади...

Аъзам Аюбнинг ижодий фаолияти ўрганилса, унинг халқ манфаатини ҳимоя қилиб кўплаб мақолалар ва ҳикоялар ёзгани маълум бўлади. Унинг жаҳият ҳаётидаги иллатларни фаш этишдан мақсади уларни бартараф этиш бўлган. Чунончи, «Хатланган турмуш» номли мақоласида никоҳ шўьбалари ва уларнинг фаолияти ёритилган. Муаллиф унда халқ турмушидаги салбий ҳолатларни қаламга олган. Жумладан, мақолада қизларни ёш никоҳга бериш, «қалин», «тўққиз» каби одатлар натижасида ёшларни бахтсиз қиладиган ҳолатларнинг келиби қиёши, аёллар ҳуқуқлари масаласи, йигитларнинг ҳам тўйдан олдин дўхтир кўригидан ўтиши зарурати сингари масалаларга эътибор қаратилади. Шу йўналишда ёзилган «Қиёматлик уч талоқ» ҳикоясида оилавий муносабатлар масаласи қаламга олинади. «Сафар жабдуғи»

жорий этиш ҳақида фикр юрийтилади. У ошиқлар, дохийлар, инқилобчилар образларининг кўпчилиги томошабиннинг назаридан қолаётганини ҳам ёзади ва томошабинлар учун янги, замонавий омма образини яратишга қаҳиради. Аъзам Аюб таржима соҳасида ҳам сезиларли натижаларга эришади. Хусусан, Голдонининг «Меҳмонхона бекаси», Шиллернинг «Макр ва муҳаббат» асарларини русчадан ўзбек тилига таржима қилади. У бир қатор кичик ҳикояларни ҳам ўзбек тилига ўтиради. Жумладан, П.Сумботтининг «Адабиз занжи», Борис Пильнякнинг «Султоннинг қаҳваси» ҳикоялари шулар жумласидандир. Албатта, булар Аъзам Аюбнинг улкан ижодий меросидан бир қатра, холос. Унинг яратган барча асарлари, таржималари ва мақолалари ўқувчилар томонидан қизгин қутиб олинганини алоҳида таъкидлаш жоиз. Зеро, Аъзам Аюб қаламига мансуб асарлар юксак бадийий савияси, пишиқлиги, тилининг равонлиги ва долзарб масалаларга қаратилгани билан ажралиб турарди.

Мухтасар айтганда, Аъзам Аюбнинг энг инжу орзу ва мақсадлари, келажак ҳақидаги ўйлари бир тўда қонсирраган вужудларнинг кир хулосалари сабаб тупроққа қоришиб, йўқликка сингари...



Баҳром ИРЗАЕВ, «Қатагон қурбонлари хотираси» музейи катта илмий ходими

Kuting!

SIYOSIY PARTIYALAR GAZETALARI



ULARNING IMKONIYATI, MINBARI VA QO'SHINIDIR...

Kelgusi sonlarda

Аскар  
Маҳкам

Сўнги  
нукта

Қайтадан хувилаб қолди юрагим  
дарз кетиб эскирган идишдек бўм-бўш.  
Улоқиб ётибди бўлак-бўлагим  
елкамда бош эмас ошёнсиз қуш...

Қўлимдан тутганлар тобут дастасин  
тутгандек оҳиста қўйиб кетдилар  
Ўқидим ёронлар жанозасини  
Ёрларим жанозам истаб келдилар...

Йўқ эди гул зоти  
бариди хорлар...  
Кўр эмас эдинг сен сўйлагин кўзим...  
Бир уйда бўридек яшаган “ёрлар”  
бир коса сув бермас дўстларни кўрдим...

Ош тутди вафодан қасам ичганлар  
миннатнинг заҳарли косаларида  
Оқибат тиғ урди илким тутганлар  
адоват деворин сояларида...

\*\*\*  
Ошиқлар оҳ тортса ҳаёлга ботиб,  
Зурлар ҳам йиғласа ҳайрон, лол қотиб,  
Дўстлар бир-бирини кетганда сотиб,  
Ўшанда билинар шоирнинг қадри.

Осмонда бир юлдуз ёнса дамодам,  
Ерда бир ёш юрак тутганда мотам,  
Ўзидан ўзини ахтарса одам,  
Ўшанда билинар шоирнинг қадри.

Овчиларнинг ови юришмаган он,  
Бошин эзиб қайтса, елкада камон,  
Ҳарсанг тош устида ўтирса ҳайрон,  
Ўшанда билинар шоирнинг қадри.

Йўловчи қумлоқдан ўтиб кетганда,  
Оҳанги қумларга чўкиб кетганда,  
Бир парча шеър ўқиб жўшиб кетганда,  
Ўшанда билинар шоирнинг қадри.

Юрак осмонини қопласа булут,  
Соҳта гўзалликнинг юзи ҳам шувут,  
Эзулик дунёси бўлганда унут,  
Ўшанда билинар шоирнинг қадри.

Дунё тор келганда зўрлар лошига,  
Ҳангомаю ғурур етиб бошига,  
Ёзув ахтарганда қабр тошига,  
Ўшанда билинар шоирнинг қадри.

Одамзод қайтадан топса қадрини,  
Кўйга солиб айтса алам, дардини,  
Бир сўздан ахтарса ул дард шарҳини,  
Ўшанда билинар шоирнинг қадри.

\*\*\*  
Узилади япроқлар секин,  
туманларга чайқалиб чўқар.  
Хотиралар оқибат бир кун  
Япроқ янглиғ йўқликка кўчар.

Япроқ бўлдик охир бизлар ҳам...

Дараларда дайди туманлар  
харсангларга ситиб ташлар ёш.  
Муҳаббатга нондек тўйганлар  
бизнинг гўрга қўймагайлар бош...

Кўз ёш бўлдик охир биз ҳам...

Чўккан мозор каби чўккан ҳис  
титроқ солар жонимга ёмон.  
Ва тупроққа яланг босиб тиз  
оёгингда ётарман, армон...

Армон бўлдик охир бизлар ҳам...

\*\*\*  
Довулларга солганлар юган  
даври даврон сурганлар қани...  
Баҳодирлар ларзага солган  
замин чалчиқ билан қопланди...

Кўзлар қўрқар йўлбарс теридан  
чақин каби чақмас бўсалар.  
Йигитларнинг нозик белидан  
қучиб борар девдек жуссалар.

«Севдим» демас ҳеч кимса йиғлаб  
ҳеч кимда йўқ бир пуллик қадр...  
Тоғлар худди ўтин орқалаб  
бораётган эшакка ўхшар...

Умр ўтар ёлғон ўйиндек  
гўё ҳеч ким туғилмас ўлмас...  
Ҳеч ким ахир бу дайди дунда  
мардоналар ўтганин билмас...

САВОЛ  
БЕРИНГ!

– Ота-она қарамоғидан  
маҳрум бўлган болаларга  
қандай имтиёзлар бор?  
Шу ҳақда маълумот  
беринг?  
Шахло Алижонов,  
Наманган шахри

– Қонунчиликка кўра,  
етим ва ота-она қарамоғидан  
маҳрум бўлган болалар давлат  
боғчалари ва мактабларга  
навбатсиз жойлаштирилади.  
Уларга техникум, коллеж,  
академик лицей ёки ОТМда  
ўқиётганда ҳар ўқув йилида  
бир маротаба ўқув, илмий ва  
бадий адабиётлар (китоблар)  
харид қилиш учун БҲМнинг 5  
баравари (1 млн. 700 минг сўм)  
микдорида субсидия берилади,  
шунингдек, ўқиниши давлат  
ОТМларида давом эттирганда  
уларга стипендия 50 фоизга  
оширилган ҳолда тўланади.

Юрист блогер расмий  
телеграм канали

– Хотин-қизлар  
фаолининг ойлик иш  
ҳақи нимага асосланиб  
белгиланади?  
Нилуфар Темирова,  
Тошкент шахри

– Маҳалладаги хотин-қизлар  
фаолининг ойлик иш ҳақи  
микдори у бириктирилган  
маҳалладаги хонадонлар  
сонига мутаносиб равишда  
белгиланади.

Юрист блогер расмий  
телеграм канали

– Электр, газ ва сув  
ҳисоблагичларни  
таъмирлаш ёки  
янгисига алмаштириш  
“Электросет” ва  
“Райгаз” ҳисобидан  
буладими ёки мижоз  
томониданми?  
Умаржон Зикриллаев,  
Олтиариқ тумани

– Ҳукуматнинг 698-сон  
қарори билан электр энергияси,  
табiiй газ, ичимлик ва  
иссик сув ҳисоблагичларини  
таъмирлаш ёки янгисига  
алмаштириш харажатлари  
тегишлича ҳудудий электр  
тармоқлари корхоналари, газ  
таъминоти ташкилотлари,  
сув таъминоти ёки ҳудудий  
иссиклик таъминоти  
корхоналари маблағлари  
ҳисобидан копланadi.

– Ер сотиб олмақчиман.  
Оиламда ногирон бор.  
Бунинг учун имтиёз  
бериладими?  
Шаҳноза Ашурова,  
Тошкент шахри

– Ҳукуматнинг тегишли  
қарори билан тасдиқланган  
низомига асосан, оиласида  
ногирон аъзолари бўлган  
шахслар аукцион оркали  
ер участкаси сотиб олишда  
уларга БҲМнинг 100 баравари  
(34 млн.) сўмгача микдорда  
бир марталик ёрдам пули  
берилади.

YURISTKADR расмий  
телеграм канали



– Ёшлар тадбиркорлигини  
қўллаб-қувватлаш учун  
грантлар ажратилиши  
ҳақида эшитдим.  
Шу ҳақда маълумот  
берсангиз?  
Солижон Шарипов, Бухоро  
шахри

– Ҳақиқатан ҳам  
Президентнинг тегишли  
Фармонида кўра, онлайн  
тўловларни қабул қилувчи  
веб-сайт яратиш ҳамда  
хориждаги туризм кўргазма ва  
ярмаркаларда иштирок этиш  
учун ҳар бир ташаббускорга  
50 млн. сўм микдорида, жами  
10 млрд. сўмгача грантлар  
ажратилади. Маблағлар хориждан  
Ўзбекистонга камида 3 йил 200  
нафар туристлар учун тур ташкил  
қилиш шарти билан берилади.

Yuristkadr расмий телеграм  
канал

– Кимларга ишга  
қабул қилинаётганда  
дастлабки синов  
белгиланмайдими?  
Маҳбуба Зокирова,  
Навоний шахри

– Қонунчиликка  
кўра, ҳомиладор ёки 3  
ёшга тўлмаган боласи  
бор аёл ёки 3 ёшга  
тўлмаган болани ёлғиз  
ўзи тарбиялаётган  
ота (васий), давлат  
грантлари асосида ўқиган  
ва олий таълим ташкилотини  
тамомлаган кундан эътиборан 3 ой  
ичида йўлланма бўйича олинган  
мутахассислигига доир ишга  
кираётган битирувчилар, ўзи билан 6  
ойгача муддатга меҳнат шартномаси  
тузилаётган ходимлар ва 18 ёшга  
тўлмаган шахсларга нисбатан  
дастлабки синов белгиланмайд

Қутлов

Журналистика уммонида ярим аср

Салкам 60 йиллик умрини  
миллий матбуотимиз ривожига  
бағишлаган устоз журналист  
Тўлқин Қозокбоев қутлуг 83 ёшни  
қаршилади.

Ўз фаолиятини 1965 йили  
“Агитатор блокноти” журнали  
тахририятида мусахҳиҳликдан  
бошлаган устоз “Гулхан”  
журналида, “Ёш Ленинчи”,  
“Тошкент окшоми”, “Вечерний  
Ташкент” ҳамда “Ишонч” ва  
“Ишонч-Доверие” газеталарида бош  
муҳаррир лавозимларида самарали  
меҳнат қилди.

Тўлқин Қозокбоев  
муаллифлигида тайёрланган

“Журналистика асослари”,  
“Муҳаррирлик маҳорати” номили  
ўқув қўлланмалари талабалар учун  
хали ҳам хизмат қилаётганини  
алоҳида таъкидлаш жоиз. 30 та  
пьесадан иборат икки жилдлик  
“Саодатнинг жасорати” драмалар  
мажмуаси эса устознинг  
қалами адабиётда ҳам катта из  
қолдирганидан далолатдир.  
“Миллий тикланиш” демократик  
партияси ҳамда газетамиз жамоаси  
номидан устоз Тўлқин Қозокбоевни  
таваллуд айёми билан қутлаб, у  
кишига сихат-саломатлик, ижодий  
фаолиятида улкан муваффақиятлар  
тилаб қоламиз!



OBUNA - 2024!

2024-YIL UCHUN «MILLIY  
TIKLANISH» GAZETASIGA  
OBUNA BO'LING!

Obuna indeksi 158

«MILLIY  
TIKLANISH»  
DEMOKRATIK  
PARTIYASINING  
IJTIMOIY-  
SIYOSIY  
GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:  
Alisher QODIROV – kengash raisi

Akmal SAIDOV,  
Abror PO'LATOV,  
Amriddin BERDIMURODOV,  
Akmal JUMABOYEV,  
Bahodir MAMATXONOV,  
Ilhom ABDULLAYEV,  
Ibrohim G'OFUROV,  
Iroda DADAJONOVA,  
Minhojiddin MIRZO,  
Nodir MUXTOROV,

Odiljon TOJIYEV,  
Olim O'SAROV,  
Otabek JIYANBOYEV,  
Ozodbek NAZARBEKOV,  
Ortiqali QOZOQOV,  
Feruza MUHAMMEDJANOVA,  
Xurshid DO'STMUHAMMAD,  
Sherzodxon QUDRATXO'JA,  
Shavkat SHARIPOV,  
Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:  
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT  
MANZILI:

Toshkent shahri,  
Uchtepa tumani,  
Maqsud Shayxzoda  
ko'chasi, 1 A-uy.  
Gazeta tahririyat  
kompyuter markazida  
terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai  
nazaridan farq qilishi  
mumkin.

Gazetada Internet  
ma'lumotlari  
va suratlaridan  
foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy  
e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga  
qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:  
Abdug'affor OMONBOYEV,  
Mabubba KARIMOVA  
NASHR UCHUN MAS'UL:  
Ma'murjon YO'LDOSHEV  
NAVBATCHI:  
Feruza XODJAYEVA  
DIZAYN GURUHI:  
Asilbek QUDRATOV,  
Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:  
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida chop etildi.  
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi  
tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.  
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 7 186.  
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.  
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq  
Buyurtma: G – 1116  
Bosishga topshirish vaqti 21:00.  
Topshirildi 03:40

Telefon:  
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456